

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

IJTIMOIIY-IQTISODIY FAKULTETI

TARIX KAFEDRASI

Fakultet dekani:

Ochilov O'.S.

Kafedra mudiri:

Rahmonov K.J.

BITIRUV MALAKAVIY ISH

**Mavzu: “Buxoro haqiqati ” va “Buxoronoma” gazetalari sahifalarida
Zarafshon vohasi tarixi masalalarining yoritilishi ”**

**5120300- Tarix (mamlakatlar va mintaqalar bo'yicha) bakalavr darajasini
olish uchun**

Tarix ta'lim yo'nalishi

bitiruvchisi: Sayfullayev Behruz Dilshod o'g'li

Ilmiy rahbar: o'qituvchi

Klichev O.A.

Buxoro-2016

Mundarija

Kirish.....3-8

I Bob. XX asrda Zarafshon vohasida mahalliy matbuotning vujudga kelishi.

I.1. Buxoroda dastlabki mahalliy matbuot organlari. “Buxoroyi sharif”, “Turon” va “Buxoro axbori” gazetalar.....9-16

I.2. “Buxoro haqiqati” va “Buxoronoma” gazetalar tasnifi16-27

I.3. XX asr 30-90-yillarida Buxoro viloyati tumanlarida chop etilgan mahalliy matbuot nashrlari..... 27-31

II Bob. “Buxoro haqiqati” va “Buxoronoma” gazetalar sahifalarida

Zarafshon vohasi tarixi masalalarininig yoritilishi.

2.1. Gazeta sahifalarida Buxoro tarixi masalalariga oid maqolalar tasniflash.....32-41

2.2. Buxoro vohasidagi tarixiy yodgorliklar va ularning ta'mirlanish tarixi masalalari matbuot sahifalarida.....41-48

2.3. Buxoro davlat universitet tarixi masalalarining gazetalaridagi talqini49-62

Xulosa.....63-66

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati67-71

Ilova.....72

Kirish

Mavzuning dolzarbligi. O'zbekiston davlat mustaqilligini qo'lga kiritgandan so'ng Respublikaning ijtimoiy-siyosiy, madaniy, ma'rifiy hayotida tub o'zgarishlar yuz bera boshladi. Ma'naviy hayotning ajralmas qismi bo'lgan tarixga xolisona, ilmiy jihatdan yondashish imkoniyati paydo bo'ldi. "Tarix xotirasi, xalqning, jonajon o'lkaning xolis va haqqoniy tarixini tiklash, milliy o'zlikni anglashni, ta'bir joiz bo'lsa, milliy iftixorni tiklash va o'stirish jaryonida g'oyat muhim o'rin tutadi"¹-deb ta'kidlaydi O'zbekiston Prezidenti I. Karimov.

Bugungi yosh avlodni yurtga sodiq farzand qilib tarbiyalashda va otabobolar xotirasiga hurmat ruhida ulg'aytirishda vatan tarixining o'rni beqiyosdir. Mustaqillikning ilk davridan boshlab O'zbekiston tarixini o'rganish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi va haqqoniy tarixni birlamchi manbalar asosida yaratish, uni xolisona tadqiq etish, baxs va munozaralar asosida tarixiy haqiqatni tiklash vazifasi qo'yildi².

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov xalqimizning katta ma'naviy meros egasi ekanligiga alohida ta'kidlaganidek: "bugungi kunda kutubxonalarimiz xazinasida saqlanayotgan ming-minglab qo'lyozmalar, ularda mujassamlashgan tarix, adabiyot, san'at, siyosat, axloq, falsafa, tibbiyot, matematika, mineralogya, kimyo, astranomya, me'morchilik, dehqonchilik va boshqa sohalarga oid qimmatbaho asarlar bizning buyuk ma'naviy boyligimizdir"³. Xalqimizning milliy o'zligini anglashida alohida kasb etgan ma'naviy meros ichida davriy matbuot ham alohida o'rin tutadi.

Buxoro viloyati tashkil topish arafasida viloyatda va uning tarkibidagi tumanlarda ham mustaqil gazetalar tashkil qilina boshlandi. Ushbu tadqiqotning asosiy jihati shundan iboratki, vaqtli matbuotda o'z davrida chop etilgan va bugungi kunda tarixga aylangan turli mavzudagi maqolalarning qay darajada haqqoniyligi hamda bugungi kundagi ahamiyatini, hozirgi zamon matbuotiga asos

¹ Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, баркарорлик шартлари ва тараккиёт кафолатлари. -Т.: Ўзбекистон, 1997.-Б. 140.

² O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Tarix instituti faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi Qarori // O'zbekiston ovozi. 1998-yil 28-iyul

³ Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat- yengilmas kuch.-Toshkent:. Ma'naviyat, 2008. –B 31.

bo'lgan nashrlarning tarixi hududiy o'rganiladi va Buxoroda nashr etilgan gazetalarning boy faktik materiallari tariximizni xolisona yozish uchun muhim manbalar sifatida xizmat qilib, bu jihat Buxorodagi matbuot tarixi va uning manbaviy ahamiyatini o'rganish naqadar dolzarb ekanligini anglatadi.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. Mamlakatimizda mustaqillik yillarida davriy matbuotning manbaviy roli va ahamiyati tarixchi olimlar tomonidan tadqiqot obyekti sifatida jiddiy o'rganila boshlandi. 2008-yilda Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi xodimi R.Fayzullayev tomonidan "Turkiston viloyatining gazetasi"ning 1870-1916 yillaridagi sonining bibliografik ko'rsatkichi nashr etilgan. Ziyo Saidning esa "O'zbek vaqtli matbuoti tarixiga materiallar" nomli kitobi⁴da Turkiston mintaqasida 1870-1927-yillar davomida nashr etilgan davriy matbuot gazetalari keltirilgan.

Matbuot tarixiga daxldor bo'lgan tadqiqotlardan T.Ernazarov va A.Akbarov⁵, N.Avazov⁶, M.Avsharova⁷, G.Axmedjonova⁸, M.Babaxanov⁹, A.Babaxanov¹⁰, N.Mustafojeva¹¹, T.Pidayev¹², R.Tursunov¹³ ilmiy tadqiqotlarida davriy matbuot materiallaridan manba sifatida unumli foydalanganlar. Jumladan, mamlakatimizda faoliyat yuritgan matbuot organlar va ularning tarixi N.Abdulazizov¹⁴, B.Do'stqorayev¹⁵, S.A.Halimova¹⁶, A.Isoqboyev¹⁷, A.Rasulov¹⁸,

⁴ Зиё Саид. Ўзбек вақтли матбуоти тарихига материаллар (1870-1927). -Тошкент-Самарқанд: Ўздавнашр, 1927. - 180 б. (Қайта нашри: Зиё Саид. Танланган асарлар. - Т.: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1974).

⁵ Эрнazarov T., Акбаров А. История печати Туркестана.-Ташкент: Укитувчи, 1976.

⁶ Avazov N. Behbudiy va matbuot // O'zbekiston matbuoti. -1991. №4. -B.30-33.

⁷ Авшарова М Русская периодическая печати в Туркестане (1870-1917гг.). – Библиографический указатель литературы. –Т.: Гос. Изд-во Узб. ССР, 1960. -198с

⁸ Ахмеджанов Г. К русско-афганским отношениям на рубеже XIX –XX в (По материалам "Туркестон вилоятининг газети") Взаимоотношения народов Средней Азии и сопредельных стран Востока в XVIII-начале XX в. -Т.: Академия наук УзССР, 1963. –С. 231-241.

⁹ Бабаханов М. Из истории периодической печати Туркестана. –Душанбе: Дониш, 1987. 180 с.

¹⁰ Boboxonov A. O'zbek matbaasi tarixidan. –Т.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1979. 149-b.

¹¹ Mustafojeva N. "Samarqand" gazetasining Turkiston ijtimoiy, siyosiy madaniy hayotida tutgan o'rni // O'zbekiston tarixi. 2002. №3. –B. 48-53.

¹² Pidayev T. O'zbekiston matbuotining o'tmishi va kechmishi // O'zbekiston matbuoti. -1996. №2. –B.42-44. Shu muallif. Ubaydullo Asadulloxo'jayev va "Sadoi Turkiston" gazetasi // O'zbekiston matbuoti. 1997. №2. –B. 38-42; №3. –B. 44-46.

¹³ Tursinov R. Jadid matbuotida Turkiston musulmonlarining ijtimoiy hayoti / U.Karimov nomidagi Yosh sharqshunoslar ilmiy konferensiya tezislari. –Т.:2005, -B. 89-92. Shu muallif: XX asr boshidagi milliy matbuotda Turkistondagi ijtimoiy-iqtisodiy hayot masalalari // O'zbekiston tarixi. -2007. №1.-B. 74-86.

¹⁴ Abdulazizova N. O'zbekiston jurnalistikasi tarixi (1870-2000).-Т.:Akademiya. 1999. -238 b.Shu muallif:Turkiston matbuot tarixi (1870- 1917).-Т.:Akademiya, 2000.

H.Saidov¹⁹, R.Tojiboyev²⁰ tadqiqotlarida o'z aksini topgan. Ular mazkur tadqiqotlarda davriy matbuot ma'lumotlarini bevosita ilmiy iste'molga tortish bilan birga, ularni tashkil etish jarayonlari, faoliyati va davomiyligi sabablari bilan bog'liq qaydlarni arxiv hujjatlari asosida yoritishga erishganlar.

Ushbu tadqiqot ishlari orasida N.Abdulazizovanning izlanishlari alohida hamiyat kasb etadi. Olim o'z izlanishlarida jurnalistikaning tarixiy ildizlari, dastlabki matbuotchilik asarlari, Turkiston general-gubernatorligining rasmiy matbuot organi va jadidlarning ushbu yo'nalishdagi taraqqiyparvar harakati natijasida Turkistonda tashkil topgan milliy matbuot nashrlari-“Taraqqiy”, “Samarqand”, “Sadoi Turkiston”, “Sadoi Farg'ona” gazetalarining tarixiy faoliyati yoritib berilgan.

O'zbekiston zamonaviy tarixshunosligida sovet davrida asossiz ravishda turli ayblar qo'yilgan taraqqiyparvarlar va ularning faoliyati matbuot materiallari asosida alohida o'rganila boshlandi. Xususan S.Shodmonova²¹, A.Jalolov,

¹⁵ Do'stqorayev B. O'zbekiston jurnalistikasi tarixi (1870-1917-yil noyabr). Darslik.-T.:G'afur G'ulom. 2009. -378 b. Shu muallif: “Taraqqiy”-ilk o'zbek milliy gazetasi // Xalq so'zi.-1993-yil 14-iyun. Shu muallif: Ismoil Gasprinskiy va Turkistonda milliy matbuot . -T.: Sharq, 2005. -288 b. Shu muallif: Buxoroda milliy matbuotning yuzaga kelishi // Ma'rifat. 2008-yil 21, 25, 28 iyun. Shu muallif: Gazeta - yettinchi davlat // O'zbekiston adabiyoti va san'ati. 2004 yil 22 oktyabr. Shu muallif: Джадидская печать в Туркестане историко- общественное значение // Роль СМИ в переломные периоды XX века. Т.:1998. –Б. 18-25.

¹⁶ Halimova S.A. Sadoi Turkiston gazetasi: yo'nalish, til, uslub va janr xususiyatlari (1914-1915 yillar). –T.: 2007, - 25 b.

¹⁷ I soqboyev A. Turkistonda milliy matbuot va ta'limni rivojlantirishda tatar ma'rifatparvarlari / O'zbekistonda millatlararo munosabatlar: tarix va hozirgi zamon. Respublika ilmiy –amaliy anjuman materiallari. – Toshkent, 2003. –B. 116-119. Shu muallif: Turkiston matbuoti fidoiylari // Jamiyat va boshqaruv. 2007. -№ 4. –B. 105-107.

¹⁸ Rasulov A. Namangan matbuotchiligi tarixidan // Tarix va taqdir. 1-kitob. Namangan, 2000. –B. 59-62.

¹⁹ Saidov H. Bexbudiyy va “Samarqand” gazetasi // O'zbekiston matbuoti. –T.:1996, -B. 44-45.

²⁰ Tojiboyev R. “Sadoi Farg'ona”- jadid matbuoti namunasi / Markaziy Osiyo XX asr boshida: islohotlar, yangilanish va taraqqiyot uchun kurash (Jadidchilik, muxtoryatchilik, istiqloлчаilik). Xalqaro konferensiya materiallari. - T.: Ma'naviyat, 2001. –B. 75-77.

²¹ Shodmonova S. Turkiston tarixi-matbuot ko'zgusida. T.: Yangi nashr. 2011. 293-b. Shu muallif: Turkiston matbuotida hunar ta'limi masalalari // Buxoro Davlat Universiteti Ilmiy Axboroti. 2009. -№ 3. –B.21-23. Shu muallif: Turkiston Davriy matbuotida diniy marosimlari masalalari (XIX asr-XX asr boshlari) // Ilm sarchashmalari. 2010. №-5. –B.54-56. Shu muallif: Turkiston Davriy matbuotida dehqonchilikka oid masalalarning yoritilishi (XIX asr-XX asr boshlari) / Markaziy Osiyo tarixi : manbashunoslik va tarixshunoslik izlanishlari. 2 ilmiy to'plam. – T.:2010. –B. 288-294. Shu muallif: Turkiston tarixi davr matbuotida (XIX asrning oxiri-XX asr boshlari) / O'zbekiston tarixi manbashunosligi masalalari. Toshkent. 2010. –B. 54-56. Shu muallif: 1917-yil Turkistonda ijtimoiy-iqtisodiy ahvolning davriy matbuotdagi monitoringi // Ijtimoiy fikr. 2006. -№1. B. 173-178.

Shu muallif: XIX asrning oxiri XX asr boshlarida Turkiston davriy matbuotida sog'liqni saqlash va tibbiyot masalalari // Imom al Buxoriy saboqlari. 2006. -№3. –B. 234-235. Shu muallif: Turkistonda saylov huquqi va matbuot (XIX asr oxiri XX asr boshlarida) // Falsafa va huquq. 2007. -№4. –B. 28-31.

X.O'zganboy²², Yo.Tayronov²³ kabi olimlar jadid matbuotiga ijodiy yondashib, jiddiy tadqiqotlar olib bordilar, ularning ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy qarashlarini o'rganishda jadid matbuotiga birlamchi manba sifatida murojaat qilganlar. Jumladan, S.Shodmonovning "Turkiston tarixi-matbuot ko'zgusida" nomli monografiyasida 1870-1917 yil fevraligacha bo'lgan davrda Turkistonda yuz bergan ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jarayonlar o'zbek va rus tilidagi davriy matbuot materiallari asosida tarixshunoslik nuqtai nazaridan tahlil qilingan. Muallif tomonidan Turkiston davriy matbuotining umumiy tavsifi va o'ziga xos xususiyatlari haqida ma'lumot berish bilan birga chop etilgan maqolalar, ma'lumotlar muammoviy yondashuv asosida o'rganilib tizimga solingan.

Buxoro vohasida vujudga kelgan dastlabki milliy matbuot: "Buxoroi Sharif" va "Turon" gazetolari va uning davriy faoliyati to'g'risida ushbu gazetalarni ilmiy tadqiqot ishi sifatida o'rgangan M.Orziyevning tadqiqotlarida boy ma'lumotlar keltirilgan²⁴. K.J.Raxmonov "Buxoro axbori" va "Ozod Buxoro" gazetolari Buxoro Xalq Sovet Respublikasi tarixini o'rganish manbasi" nomli monografiyasida Buxoro Xalq Sovet Respublikasidagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy jumladan ta'lim-tarbiya va diniy masalalar davriy matbuotdagi manbalar asosida ilmiy jihatdan yoritib berilgan²⁵.

²²Jalolov A. O'zganboy X. O'zbek marifatparvarlik adabiyotining taraqqiyotida vaqtli matbuotning o'rni. ("Turkiston viloyatining gazetasi", "Tarqqiy", "Samarqand", "Sadoi Turkiston" kunnomalarini asosida) – T.:Fan, 1999. –115 b.

²³ Tayronov Yo. XX asr boshlarida Turkistonda ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayot masalalarining milliy matbuotda yoritilishi // O'zbekiston tarixi. -2008.- №4. –B 47-53.

²⁴ Orziyev M. XX asr boshlarida Buxoroda xorijda chop etilgan matbuot targ'iboti / "Tarixiy xotira – ma'naviyat asosi" mavzusidagi ilmiy-nazariy anjumani materiallari. –Buxoro, 2010. –B. 87-88; Shu muallif. "Buxoroi sharif" va "Turon" gazetolari – tadqiqotchilar nigohida / "XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Buxoro" mavzusida respublika ilmiy-nazariy anjumani materiallari. –Buxoro, 2010. –B. 22-24.; Shu mallif. XX asr boshlarida Buxoro amirligidagi iqtisodiy ahvol xususida ("Buxoroi sharif" gazetasi materiallari asosida) / "Tarixiy xotira – ma'naviyat asosi" mavzusidagi ilmiy-nazariy anjumani materiallari. –Buxoro, 2011. –B. 52-54.

²⁵ Rahmonov K. "Buxoro axbori" gazetasi- Buxoro Respublikasi matbuot organi // Jamiyat va boshqaruv. - Toshkent, - № 2. 2004. -b. 44-46. Shu muallif: Buxoroda mahalliy matbuotning vujudga kelishi tarixidan (XX asrning birinchi choragi) // Buxoro davlat universiteti ilmiy axboroti. –Buxoro, 2008. -№3. -b. 24-28; Shu muallif: "Buxoro axbori" va "Ozod Buxoro" gazetalarida maorif masalasining yoritilishi / O'zbekiston tarixi va madaniyati (Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari). Toshkent, -2011. -B.154; Shu muallif. Matbuotda dunyo mamlakatlaridagi ijtimoiy-siyosiy muammolar talqini // Buxoro davlat universiteti ilmiy axboroti. –Buxoro,2011. - №1.-B 4-8. Shu muallif: Buxoro Xalq Sovet Respublikasi tarixi matbuot saxifalarida (1920-1924 yillar)- T.: "Abu Matbuot-Konsalt" 2012. 142-b.

“Buxoro axbori”, keyinchalik “Ozod Buxoro”, “Buxoro proletari”, “Buxoro haqiqati” kabi “Buxoronoma” viloyat gazetasining tahririyatining 90 yil bosib o’tmishdoshlari, matbuotchilik faoliyati va publitsistikasi haqida “Buxoronoma” tahririyat a’zolari tomonidan nashr etilgan “Tarixga muhrlangan 90 yil” kitobida hamda “20.000-uchrashuv” nomli publitsistik risolada kengroq va atroflicha ma’lumotlar berib o’tilgan²⁶. Ammo, ushbu tadqiqotlarda voqa tarixi va uning moddiy hamda ma’naviy merosi masalalarini yetarli darajada yoritilmagan. Ushbu bitiruv malakaviy ishi masalani yaxlit o’rgangan dastlabki tadqiqotlardan biri hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishining davriy chegarasi. XX asrning 30 yillari XXI asr boshlarigacha bo’lgan davrda Buxoro vohasida faoliyat yuritgan gazetalar qatorida “Buxoro haqiqati”, “Buxoronoma” nashrining voqa tarixini o’rganishdagi o’rni tahlil etishdan iborat

Bitiruv malakaviy ishning maqsad va vazifalari. “Buxoro haqiqati” va “Buxoronoma” gazeta sahifalarida Buxoro vohasining eng qadimgi davrlardan to’g’ri hozirga qadar bo’lgan tariximizga doir maqolalarni tadqiq etish va xulosalar chiqarish mazkur ishning asosiy maqsadi hisoblanadi.

Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalarni belgilab olindi:

- XX asr 30 yillari va XXI asrda Buxoro viloyatida ta’sis etilgan gazetalar haqida umumiy ma’lumotlar berish;
- Hududiy nashrlarda tarixiy masalalarga yondashuvni matbuot materiallari orqali tahlil etish;
- “Buxoro haqiqati” va “Buxoronoma” gazeta sahifalarida chop etilgan tarixiy xarakterdagi maqolalarni guruhlashtirish;
- Buxoro vohasidagi moddiy va me’moriy yodgorliklar tarixiga oid matbuotda chop etilgan maqolalarni tadqiq etish.

²⁶ Tarixga muxrlangan 90-yil. “Buxoronoma” gazetasining 90 yilligiga bag’ishlanadi. Buxoro, 2010. 293 b; 20.000-uchrashuv // “Buxoronoma” gazetasi 20.000-soni chiqqaniga bag’ishlangan publitsistik risola. Buxoro, 2007. 30 b.

- Matbuot sahifalarida Buxoro davlat universiteti tarixiga oid maqolalarni o'rganish.

Bitiruv malakaviy ishning tuzulishi va hajmi. Ish kirish, ikki bob, olti reja, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovadan iborat. Bitiruv malakaviy ishning hajmi 72 betni tashkil etadi

I Bob. XX asrda Zarafshon vohasida mahalliy matbuotning vujudga kelishi.

I.1. Buxoroda dastlabki mahalliy matbuot organlari. “Buxoroyi sharif”, “Turon” va “Buxoro axbori”

XX asr boshlarida Turkiston mintaqasidagi taraqqiyparvarlar harakatining namoyondalari Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Munavvar Qori Abdurashidxonov, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpon, Ubaydullo Xo'jayevlar mahalliy matbuotning vujudga kelishida muhim rol o'ynagalar. Jumladan, 1906-yil 14-iyunda Ismoil Obidiy muharrirligida “Taraqqiy”, 1906-yil sentyabrdan Munavvar Qori Abdurashidxonov muharrirligida “Xurshid”, Abdulla Avloniy muharrirligida 1907-yil dekabrdan “Shuhrat”, 1908-yil apreldan Ahmadjon Bektemirov muharrirligida “Osiyo” kabi gazetalar nashr qilindi²⁷.

Buxoro vohasida esa matbuotining tashkil etilishi XIX asrning oxirlarida Turkiya, Rossiya, Eron kabi mamlakatlarda birinchilardan bo'lib ta'lim olib qaytgan Abduvohid Burxonov, Hamidxo'ja Mehriy, Ahmad Maxdum, Mirzo Sirojiddinov, Usmonxo'ja Po'latxo'jayev kabi buxorolik yoshlar boshlab bergan marifatparvarlik harakati bilan bevosita bog'liqdir.

Mirzo Abdulvohid Burxonov 1908-yilning bahorida marifatparvarlik yo'lida o'z xonadonida ilk jadid maktabini ochdi. Ko'p o'tmay Mirzo Abdulvohid katta yoshdagilar uchun kechki ta'lim ham tashkil etdi. Ushbu tashkil etilgan maktablar uchun o'quv qo'llanmalar, ma'rifiy kitoblar chop etish zaruratida Mirzo Abduvohid 1909-yilning mart oyi oxirida “Buxoroyi Sharif” nashriyotchilik shirkatini tashkil etishiga olib kelgan.

Mazkur shirkat ta'sisчилari 9 kishidan iborat bo'lib, Abduvohid Burxonov va Sadriddin Ayniy uning nizom jamg'armasiga 14 so'mdan, Mulla Nizom, Sobit,

²⁷ Shodmonova S. Turkiston tarixi-matbuot ko'zgusida. T.: Yangi nashr, 2011. -B. 48-53.

Gabdraxman Saadi 7 soʻmdan oʻz ulushlarini qoʻshdilar. Koʻp yillar faoliyat koʻrsatgan mazkur shirkat “Munzim boshmaxonasi” nomi bilan tarixga kirgan²⁸.

Abdulahadxon hukmronligining soʻnggi yillarida yangi usuldagi maktablar jamiyatda ixtilofli vaziyatni vujudga keltirishidan xavotirga tushib amirlikdagi barcha jadid maktablarini yopish toʻgʻrisidagi koʻrsatmasidan keyin Abdulvohid Burxonov taʼlim-tarbiyani yashirin usulda berishni taklif qilib 1910-yilning 2-dekabrda uning rahbarligida “Tarbiyayi atfol” yashirin tashkiloti tuzildi.

“Tarbiyayi atfol” jamiyati yoshlarni oʻz mablagʻlari hisobidan Turkiya, Rossiyaga oʻqishga yubordilar. 1913-yilga kelib jamiyat hisobidan Turkiyada tahsil koʻrganlar soni 30 kishiga yetdi. Iqtidorli yoshlarni nafaqat Buxoroda balki viloyatlardan ham izlab topib oʻqitish maqsadida joylarda marifatparvarlik gʻoyalarini tarqatish lozim edi. Abdulvohid Burxonov shuni nazarda tutib maʼrifatparvar shoir va shifokor Mirzo Sirojiddinov bilan hamkorlikda Buxoroda kundalik gazeta tashkil qilish gʻoyasini ilgari surdi. Buxorolik Muhitdin Mansurov kattagina mablagʻni gazeta tashkil qilishga safarbar etadi.

N.Naimov maʼlumotlariga koʻra Buxoroda noshirlik tajribasini yoʻlga qoʻyish maqsadida Bokudan taniqli jurnalist Jamol Yusufzoda taklif qilingan. 1912-yilning 25-martida Kogonda Levin bosmaxonasida “Buxoroyi sharif”ning birinchi soni nashr etilib yashirin yoʻllar bilan poytaxtda, viloyat va tumanlarda tarqatildi. Buxoroda matbuot tarixi mana shu kundan boshlanadi²⁹.

“Buxoroyi sharif” gazetasi toʻgʻrisida Sadriddin Ayniy 1926-yilda Moskvada oʻzbek tilida nashr etilgan “Buxoro inqilobi tarixiga oid materiallar risolasida” shunday yozadi: “Buxoroyi sharif shul holkim kundalik 4 oy davom qildi. Lekin bu orada Buxoro qishloqlari va atrof viloyatlarining koʻp aholisi oʻzbekligi nazarga olinib “Buxoroyi sharif” idorasi ostida haftada ikki marta “Turon” ismida turkcha bir gazeta chiqarmoqqa qaror berildi. Turonning birinchi soni 1912-yilning 14-iyul kuni nashr qilindi. Shunday qilib haftada 4 qatla

²⁸ Naimov N. Buxoro matbuotining tugʻulishi / Tarixga muhrlangan 90-yil. “Buxoronoma” gazetasining 90 yilligiga bagʻishlanadi. Buxoro, 2010.-B.18-19.

²⁹ Shu maba.-B.20.

“Buxoroyi sharif”, 2 qatla “Turon” chiqa boshladi³⁰. “Buxoroyi sharif” gazetasiga asos solingan sanadan 4 oy o‘tib, ya’ni 1912-yil 14-iyul “Turon” gazetasining 1-soni nashr qilindi. Jamol Yusufzoda rahbarligi ostida gazeta nashrida muayyan tajriba to‘plab ulgurgan Mirzo Sirojiddin “Turon” gazetasiga o‘zi muharrirlik qilgan. Umumiy rahbarlik esa Abdulvohid Burxonov tomonidan amalga oshirilgan.

Buxoroda matbuotning vujudga kelishini o‘rgangan B.Do‘stqorayeva “Turon” gazetasi tahlil qilib quyidagilarni keltirib o‘tadi: “Turon” gazetasining birinchi sonida shunday rukndagi materiallar uchraydi: bosh maqola, ijtimoiy-madaniy mavzudagi maqolalar, telegraf xabarlar, mahalliy, xorijiy, tijoriy xabarlar: reklama va e’lonlar. Bu tuzilish gazetaning deyarli oxirgi sonigacha saqlanib qolgan³¹.

“Buxoroyi sharif” haftada 3-4 marotaba, “Turon” gazetasi esa 2-3 marotaba chiqib turgan. Gazetalarda bosilayotgan qaltis maqolalardan xavotirga tushgan Levin mablag’ yetishmaganligi bois gazetalarni chop etishni to‘xtatishni jadidlarga ma’lum qildi. Buxoroda M.Mansurov, Usmon Xo‘ja Pulatxo‘jayev kabi jadidchilik harakati namoyandalari matbuot organlari faoliyatini to‘xtatmasdan ularga ketadigan sarf-harajatlarni o‘z zimmalariga olganlar. Jumladan, Usmon Xo‘ja “Tarbiyayi atfol” tashkiloti faoliyatida va gazetalar nashr qilinishida xizmatini ayamagan³².

Siyosiy muxoliflar mazkur gazetalarni yopish uchun harakat qilib Buxoro amiriga, rus siyosiy vakolatxonasi rahbarlariga bu gazetalarni chop etishni davom ettirish oqibatida hukumat to‘ntarishiga olib kelishi bilan qo‘rqitishdi. 1913-yilning 15-yanvarida Kogondagi rus vakolatxonasi rahbari Miller bosmaxona xo‘jayini Levinga amir Olimxonning “Buxoroyi sharif” va “Turon” gazetalarni yopish to‘g‘risidagi ko‘rsatmasini yozma tarzda yetkazdi. Natijada 1913-yilning 2-

³⁰ Naimov N. Buxoro matbuotining tug‘ulishi / Tarixga muhrlangan 90-yil. “Buxoronoma” gazetasining 90 yilligiga bag‘ishlanadi. Buxoro, 2010.-B. 21.

³¹ Do‘stqorayev B. Buxoroda milliy matbuotning yuzaga kelishi // Ma’rifat. 2008-yil 21, 25, 28 iyun.

³² Rajabov Q. XX asr boshlarida Turkiston yoshlari. Ularning siyosiy faoliyati va Sharq mamlakatlaridagi yoshlar haratlari bilan uzviy aloqalari. // Huquq va burch.-Toshkent. -№1. 2000.-B. 39-43.

yanvarida “Buxoroyi sharif” va “Turon” gazetolari o‘z faoliyatini to‘xtatdi³³. Qisqa davr mobaynida nashr etilgan “Buxoroyi sharif” va “Turon” gazetolari orqali Buxoroda dastlabki matbuotchilik faoliyatiga asos solindi.

1920-yil 2-sentyabrda Buxoro amirligi ag‘darilib amirlik tuzumining o‘rniga BXSR tashkil topganidan so‘ng shu yilning 9-sentyabrda hukumatning dastur va vazifalarini xalqqa yetkazish maqsadida “Buxoro axbori” gazetasi chop etildi. “Buxoro axbori” gazetasi, uning tuzulishi, davriylik faoliyati, gazeta sahifalarida chop etilgan maqolalarning xalqning siyosiy va madaniy faolligida tutgan o‘rni haqida K.Raxmonov o‘zining ilmiy tadqiqotlarida yoritib bergan.

Jumladan olimning “Buxoroda mahalliy matbuotning vujudga kelishi tarixidan” nomli maqolasida “Buxoro axbori” gazetasining tashkil topishi haqida to‘xtalib, “1920-yil 9-sentyabrda, ya‘ni amirlik tuzumi ag‘darilganidan roppa-rosa bir hafta o‘tib, BXSRning markazi eski Buxoro (hozirgi Buxoro) shahrida o‘zbek adabiy tilida, isloh qilingan arab imlosida “Buxoro axbori” nomi bilan gazeta chop etildi. Gazeta Butun Buxori Inqilobiy qo‘mitasi, 1921-yildan esa BXSR Markaziy Ijroiya qo‘mitasi organi sifatida nashr etilgan. “Buxoro axbori” gazetasining birinchi soni A-3 formatda 2 sahifada, A-4 formatda 4 sahifada yupqa va sifati yuqori bo‘lmagan sarg‘ish rangli bosmaxona qog‘ozida chop etilgan”³⁴deb yozadi.

K.Raxmonov bilan bir qatorda Buxoroda mahalliy matbuotning vujudga kelishini o‘rgangan B.Do‘stqorayeva o‘zining “Cho‘lpon va Buxoro axbori” nomli maqolasida gazetada muhim siyosiy o‘rin tutgan F.Xo‘jayevning gazetaning sahifalarida e‘lon qilgan maqolalari va ularning mazmuni haqida ma‘lumotlar beradi. Buxoro xalq sho‘rolar jumxuryatining rahbari F.Xo‘jayev gazetaga 1921-iyul-dekabr oylarida “Qurultoyga hozirlik”, “Sho‘rolar hukumati va uning xalqqa foydali bo‘lish shartlari”, “Xotiramda”, “Navbatdagi ishlarimizdan”, “Nimalar kerak” kabi maqolalar e‘lon qilingan. “Sho‘rolar hukumati va uning xalqqa foydali

³³ Naimov N. Buxoro matbuotining tug‘ulishi / Tarixga muhrlangan 90-yil.”Buxoronoma” gazetasining 90 yilligiga bag‘ishlanadi. Buxoro, 2010.-B. 33.

³⁴ Raxmonov K, Hayitov J. Buxoroda maxalliy matbuotning vujudga kelish tarixidan (XX asrning birinchi choragi) // Buxoro davlat universiteti Ilmiy axborotnomasi. - Buxoro, № 3.-2008. –B. 27.

bo'lish shartlari" maqolasida F.Xo'jayev "Bizning inqilobimiz xalq inqilobi, xalqni aksariyatini tashkil etgan dehqon va fuqaro inqilobi, hukumatimiz Xalq hukumati deb atalib, xalq va yurt mudofaasi bilan ma'murdir"³⁵. Gazetaning dastlabki muharriri Said Ahroriy hisoblanib, u gazetaning 1920-yil 9-sentabrdan 1921-yil 30-iyuniga qadar bosh muharriri lavozimida ishlaydi. Said Ahroriy "Buxoro axbori" gazetasiga 9 oy ichida 28 ta maqola e'lon qilgan.

Ushbu maqolalarning nomlari va mazmuni haqida Sh.Hayitov o'zining "Birinci muharrir" nomli maqolasida quyidagi ma'lumotlarni beradi: "S.Ahroriy muharrirligi davomida "Buxoro xabarlar", "Viloyatlarimizda", "Sharq dunyosi", "Chet ellarda", "Fan va texnika", "Hukumat tadbirlari" kabi ruknlarga asos solingan. Ayniqsa, "Buxoro xabarlar" rukni ostida BXSR va unga qo'shni bo'lgan Turkiston ASSR, XXSR, RSFSR kabilardagi iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, madaniy hayot o'zgarishlari muntazam berib borilgan. U Gazetaning 1920-yil 15-sentabridagi 2-sonida "Yo hayoti jadid" va "Inqilobimiz" sarlavhali ikkita maqola e'lon qilib maqolasida xalqni ma'rifatli bo'lishi o'z qo'lida ekanligini takidlagan.

Uning muharrirligi davrida "Mustaqil Buxoro" (1920-yil 4-noyabr 4-son), "So'ngsiz qish" (1920-yil 26-noyabr 9-son), "Yoshlarimizga" (1920-yil 29-noyabr 10-son), "Do'stlik munosabati" (1921-yil 12-yanvar 19-son), "Do'stlik to'g'risida" (1921-yil 22-fevral 25-son), "Turmush yo'linda" (1921-yil 5-aprel 30-son), "Harbiy ishlarimiz almashsun" (1921-yil 1-may 34-son), "Vazifa boshinda" (1921-yil 28-may 35-son), "Idoralarning tuzatilishi" (1921-yil 28-may 38-son) kabi o'nlab maqolalar e'lon qilindi"³⁶.

Sh.Hayitov S.Ahroriyning maqolalarini tahlil qilib berar ekan uning muharrirligi ostida chiqqan gazeta sonlaridagi maqolalar kechayotgan voqealarni xolis, tanqidiy, ayni paytda oddiy aholiga tushunarli qilib yetkazishi bilan muhim manba bo'lib hisoblanadi degan xulosaga kelinadi.

³⁵ Do'stqoriyeva B. Cho'lpon va Buxoro axbori. / Tarixga muhrlangan 90-yil."Buxoronoma" gazetasining 90 yilligiga bag'ishlanadi. Buxoro,2010. -B.49

³⁶ Hayitov Sh. Birinchi muharrir. // Buxoronoma. 2003-yil 10-sentabr.

Maxmud S.Ahroriy 1921-yil iyul oyidan Buxoro respublikasining Ozarbayjondagi vakolatxona boshlig'i lavozimiga tayinlandi. Keyinchalik 1930-yilda S.Ahroriy Samarqanddagi Moliya-iqtisod texniko'mida o'qituvchilik qiladi. 1930-yilning 12-noyabrida aynan shu joyda hibsga olinadi. 1931-yilning 23-mayida Moskvada RSFSR jinoyat majmuasining 58-moddasi 4-bandi bilan ayblanib otuvga hukm qilindi. Lekin hukm chiqishidan o'n kun oldin, 1931-yil 13-mayidayoq S.Ahroriy otib tashlangan³⁷.

S.Ahroriydan keyin "Buxoro axbori" gazetasiga Cho'lpon bosh muharrirlik qilgan. Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpon jurnalistikaga 1914-yilda kirib kelgan. Uning 1914-1915-yillarda chiqqan "Sadoi Turkiston" hamda "Sadoi Farg'ona" gazetalarida ilk publitsistik badiiy asarlari bosilgan. 1919-yilning 16-dekabridan Toshkentda nashr etilishi mo'ljallangan "PycTo" devoriy gazetasiga muharrir etib tayinlangan. Said Ahroriyning BXSRning Ozarbayjondagi vakili sifatida Bokuga ketishi munosabati bilan "Buxoro axbori" gazetasiga Mahmud Badaliyni qisqa muharrirligidan so'ng, Fitrat taklifi bilan Cho'lpon bosh muharrirlikka taklif etilib, 1921-yil 30-iyunidan gazeta uning muharrirligida chop etilgan³⁸.

B.Do'stqorayeva gazetalarni o'rganishdagi ilmiy faoliyatida Cho'lponing gazetadagi muharrirlik faoliyati va publitsistik ijodi haqida bir qancha ilmiy ma'lumotlar bergan. U gazetaning 1921-yil 20-iyul sonidan boshlab "Ochiq xatlar" ruknida xabarlar e'lon qilib, mazkur xatlarda o'sha davr ijtimoiy kamchiliklari ko'rsatilgan va tuzatilishi nazarda tutilgan.

Cho'lpon muharrirligi davomida gazetada "Nozirlar sho'rosida", "Iqtisod nazoratida", "Hukumat mufattishlarida", "Nozirlar sho'rosida suv masalasi", "Ozuqa muammolarini ixchamlashtirish" kabi maqolalar chop etilgan bo'lib, muharrir ushbu maqolalarda xalq manfaatlarini har narsadan yuqori qo'yishga

³⁷ Hayitov Sh. Birinchi muharrir. // Buxoronoma. 2003-yil 10-sentabr.

³⁸ Do'stqoriyeva B. Cho'lpon va Buxoro axbori. / Tarixga muhrlangan 90-yil."Buxoronoma" gazetasining 90 yilligiga bag'ishlanadi. Buxoro,2010. -B.50.

intilgan. Cho'lpon "Jar" nomli ko'p nusxali devoriy gazetada ham ham muharrir bo'lib, bu gazetad ham uning publitsistik asarlari va she'rlari bosilgan.

1922-yilda Cho'lpon xasta bo'lib shifoxonaga tushgach shu yilning 4-fevralidan 17-iyuniga qadar Ziyo Usmoniy "Buxoro axbori" gazetasiga bosh muharrir etib tayinlangan. Ziyo Usmoniydan so'ng gazetaga Ostonsul Abdulqiyomov 1922-yil iyul-sentabr oylarida bosh muharrirlik qilgan³⁹. K.Raxmonov "Buxoro axbori" gazetasini o'rganish jarayonidagi Ziyo Usmoniy va Ostonsul Abdulqiyomovlar gazetada muharrirlik qilgan davrda gazeta matbuotida pasayish yuz berganligini ta'kidlab, olim o'z fikrini gazetaning Ziyo Usmoniy davrida chop etilishi qisqarganligi, Ostonsul Abdulqiyomov davrida esa asosiy e'tibor harbiy ehtiyojlarga qaratilganligi sababli gazetaning moddiy ta'minlanmaganligi kabi dalillar asosida izohlaydi.

Ostonsul Abdulqiyomov keyin gazetaga Qori Yo'ldosh Po'latov 1922-yil sentabrdan 1923-yil sentabrigacha bosh muharrirlik qilgan. Uning muharrirliги davomida gazetaning moddiy, texnikaviy bazasi yaxshilanib Tatariston ASSRdan musulmon shirifti, Germaniyadan musulmoncha harf terish mashinasi keltirilgan. Gazeta haftada ikki marta muntazam chiqib, 4 sahifadan emas, balki 8 sahifadan chop etilgan. Qori Yo'ldosh Po'latovdan so'ng gazetaga 1923-yilning 21-sentabridan shu yilning 16-oktabriga qadar Qosim Sorokin bosh muharrirlik qilgan⁴⁰.

1923-yil F.Xo'jayev Germaniyada davolanayotganidan foydalanib bolsheviklar partiyasi 1923-yilning yozida Buxoroga maxsus komissiya yuborib turli bo'xton va ig'volardan iborat davolar bilan Abdurauf Fitrat, Atoulla Xo'jayev, Muin Aminov, Sattor Xo'jayev va Qosim Sorokin, Abbos Aliyevlar kabi erkparvar nozirlarni vazifasidan chetlashtirilgan, Said Ahroriy singari qismat qurboni bo'lganlar. Shunda "Buxoro Axbori" tahririyatida va gazetaning nomida

³⁹ Rahmonov K. Turkistonda matbuot tarixining dolzarb muammolari. Buxoro, 2015. –B. 48-49.

⁴⁰ Shu manba. –B. 51.

o'zgarishlar yasali b gazetaning nomi 1923-yil 16-oktabrdan "Ozod Buxoro" deb o'zgartirildi⁴¹.

Xulosa o'rnida aytganda XX asr boshida Buxorodagi jadidlarning xalq ongini uyg'otishga qilingan harakatlari qatorida Buxoro amirligida 1912-yilda "Buxoroyi Sharif" va "Turon" gazetolari tashkil topgan. Ushbu matbuot nashrlari Turkistonda bu davrda nashr etilgan rasmiy rus tilidagi gazetalardan farq qilgan. Xususan, rasmiy matbuotda siyosiy voqealar xastpo'shtlab, xalq qo'zg'olonlari oddiy to'polon sifatida aks ettirilgan bo'lsa, Buxorodagi milliy matbuot nashrlarida esa mahalliy aholi hayotiga doir muammolar o'z aksini topib, masalalar umummilliy manfaatdan kelib chiqqan tarzda qo'yilgan.

"Buxoroyi Sharif" va "Turon" gazetolari qisqa muddatda chop etilgan bo'lsada omma ongini uyg'otishda hal qiluvchi rol o'ynafgan. "Buxoro axbori" gazetasi esa BXS Rning mustaqil matbuot organi bo'lib, gazetaning sahifalarida o'lkani turli jihatdan o'rganish bo'yicha hukumat rahbarlari tomonidan amalga oshirilgan ishlar va xalqni siyosiy, madaniy faollikka chorlovchi maqolalar o'rin olgan.

I.2. "Buxoro haqiqati" va "Buxoronoma" gazetolari tasnifi

O'zbekiston Respublikasining mustaqillik yillaridagi milliy o'zlikni anglashga bo'lgan istak va intilish o'zbek xalqining haqqoniy tarixini yaratish masalasini kun tartibiga qo'ydi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning Respublika yetakchi tarixchi olimlar bilan 1998-yil iyun oyidagi uchrashuvi va prezidentimizning "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q" asari tarixiy xotira va ma'naviy hayot masalalarini qamrab olgan tarix fanining siyosiy va ijtimoiy hayotdagi haqiqiy o'rnini ko'rsatishga va tarixni xolisona, obyektiv manbalar asosida yaratishga yordam berdi.

O'zbekiston tarixida Buxoro vohasining XX asrning 30-yillardan 90-yillarga qadar bo'lgan tarixi muhim tarixiy davr ekanligi ayni haqiqatdir. Ushbu tarixiy

⁴¹ Naimov N. Buxoro matbuotining tug'ulishi./ Tarixga muhrlangan 90-yil."Buxoronoma" gazetasining 90 yilligiga bag'ishlanadi. Buxoro,2010. -B.21-22.

davrni yoritishda tarixchi olimlar tomonidan yozilgan ilmiy adabiyotlardan tashqari, davriy matbuot ham muhim manba bo'lib xizmat qila oladi. Ushbu manbalar orasida “Buxoro haqiqati”, “Buxoronoma” ro'znomalari alohida o'ringa ega.

Buxoro viloyatining davriy matbuot organi hisoblangan-“Buxoro haqiqati” “Buxoronoma” gazetasi nafaqat O'zbekistonda, balki butun Markaziy Osiyodagi qadimiy nashrlardan biridir. Ikkinchidan bu joyda xalq baxt iqboli, yurt farovonligi, tariximizning bardavomligi uchun bilim va mahoratini, kuch qudratini ayamagan F.Xo'jayev, A.Fitrat, S.Ayniy, A.Cho'lpon, Y.Muqimov, T.Hamid kabi davlat arboblari, o'tkir publitsistlarning izlari bor.

“Buxoro haqiqati” gazetasi 1938-yilda O'zbekiston Kommunistik partiyasi komiteti va xalq deputatlari Buxoro viloyati soveti organi sifatida tashkil etilgan etilgan. “Buxoro haqiqati” gazetasi “Buxoro axbori” (1920-yil 28-iyundan 1923-yilgacha), “Ozod Buxoro” (1923-1928), “Buxoro proletari” (1928-1938 yy) gazetalarning davomchisi sifatida faoliyat yuritgan.

“Buxoro haqiqati” gazetasi tashkil topgan vaqtda tahririyat hozirgi Shahrison bozorining g'arb tomonidagi kichik bir binoda joylashib, tahririyatda o'sha davrda 40 dan ziyod ziyod kishi ishlagan. “Buxoro haqiqati” gazetasining dastlabki bosh muharriri 1938-1940-yillarda Otaxon Toshxo'jayev bo'lgan. Gazeta 2 jilddan, A-4 sahifadan iborat bo'lib, 42x62sm, haftada 5 marta nashr qilingan⁴².

Gazeta asosan urushgacha bo'lgan besh yillik qurilishlar davrida viloyat iqtisodiyoti asosini yaratish, qishloq xo'jaligini rivojlantirish, irrigatsiya inshootlari va sanoat korxonalari qurilishlariga oid masalalarni yoritgan bo'lsa, ikkinchi jahon urushi yillarida otashin so'zi bilan buxoroliklarning vatan mudofaasiga, g'alabani yaqinlashtirishga da'vat etgan.

Gazetaga Y.Muqimov bosh muharrir, T.Hamid bosh muharrir o'rinbosari bo'lgan yillar, o'tgan asrning 50-yillari oxiri 60-yillari boshlarida matbuotda tub o'zgarishlar sodir bo'lib, gazeta katta hajmda, A-2 shaklda nashr qilina boshlandi.

⁴² Shonli 60 yil // Buxoro haqiqati.1980-yil 12-iyul.

Gazetada bu davrda tajribali jurnalistlar ko'pchilikni tashkil etgan. Jumladan, Shukur Hasanov, G'ulom Kenjayev, Muhammad Baqoyev, Murod Hakimov, Habib Abdullayev, Axror Bahromov singari ijodkorlarning nomi gazeta sahifalarida munosib joy olgan⁴³.

Shoir Murod Xalilov gazetada ishlagan davrda o'zining yorqin ijodkorligi bilan tanilgan. Shoir Amu-Buxoro mashina kanali qurulish qahramonlariga bag'ishlangan ocherklar to'plami, tabiiy gaz konlarida mehnat qilgan buxorolik Ergash Ochilov haqidagi dostoni shoirni butun ommaga tanitdi.

Shoir Aminjon Shukurov o'n yildan ziyod vaqt mobaynida "Buxoro haqiqati" tahririyatida sa'noat, qurilish va transport bo'limini boshqarib, viloyatdagi iqtisodiy, ijtimoiy o'zgarishlarini har bir sonida mufassal yoritib borgan.

"Buxoro haqiqati" tahririyatida ishlagan jurnalist Nusrat Ashurov va Hoshim Qodirovlar felyeton ustalari sifatida gazetxon xotirasida qolishgan. Kasbiga sodiq bu mohir qalam sohiblari tanqidiy materiallari uchun nohaq bosim va taqiblarga uchragan bo'lsalar ham haqiqat yo'lidan qaytmaganlar.

XX asr 60 yillar boshiga qadar moddiy texnik bazasi tamomila izdan chiqqan bo'lib, katta hajmdagi nashr eskirgan texnika asbob uskunalariga ega bosmaxonada chop etilgan. 1958-yil kuz oyida gazeta hayotida yangi davr boshlandi. Ya'ni moddiy texnik jihatdan eskirgan matbaa sohasida o'zgarishlar bo'lib, Moskva, Toshkent bosmaxonalarida ishlatilib eskirgan chop etish mashinasi yetkazib berilgan⁴⁴.

Gazetaga mustaqillikgacha bo'lgan davrda Abdurahim Nurmuhammedov (1940-1958), Yo'ldosh Muqimov (1958-1961), Obloqul Egamov (1961-1966), Xomidjon Mo'minov (1966-1970), Toshpo'lat Hamid (1970-1980), Umid Sattorov (1980-1983), Ahmadjon Nurmuhammedovlar bosh muharrirlik qilganlar.

⁴³ Muqimov Y. Ming ta'zim // 20.000-uchrashuv "Buxoronoma" gazetasi 20.000-soni chiqqaniga bag'ishlangan publitsistik risola. Buxoro, 2007. - B. 5.

⁴⁴ Niyozmurodov A. Istiqlol bergan imkoniyat // 20.000-uchrashuv "Buxoronoma" gazetasi 20.000-soni chiqqaniga bag'ishlangan publitsistik risola. Buxoro, 2007. - B.7.

Mustaqillik yillarida Toshpo'lat Ahmedov (1993-1996), va Nusratillo Naimovlar (1996-2002) bosh muxarirlik qilganlar⁴⁵.

Mustaqillik sharofati bilan gazeta sifat darajasi o'zgarib kompyuterlashtirish joriy etildi. 1997-yilning 1-senabridan boshlab tahririyat to'la ravishda kompyuter texnologiyasiga o'tdi. Gazetaning mazmun mundarijasini va tezkorligini oshirish maqsadida O'ZA bilan elektron aloqa yo'lga qo'yilib, har qanday materialni bir necha daqiqada Toshkentdan qabul qilish va to'g'ridan-to'g'ri gazeta sahifalariga joylashtirish joriy etildi. 1998-1999-yillarga kelib tahririyat nafaqat Buxoro, balki Navoiy, Qashqadaryo, Xorazm viloyat jurnalistlari uchun o'ziga xos tajriba maktabiga aylandi. "Бухарский вестник" viloyat gazetasi, tuman va shahar gazetalari va viloyat bosmaxonasi xodimlari Buxoro tahririyatidan tajriba o'rganib ilg'or texnologyalarni o'zlarida joriy etishdi. Gazetaning adadi ellik ming nusxadan oshdi.

"Buxoro haqiqati" gazetasi 1999-yil 4-dekabrda boshlab "Buxoronoma" nomi bilan chop etilmoqda. "Buxoronoma" - Buxoro viloyati hokimligining ijtimoiy, siyosiy gazetasidir. Gazeta Buxoro shahrida haftada ikki marta o'zbek tilida chiqadi. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan keyingi davrda "Buxoronoma" shaklan va mazmunan tubdan o'zgarib, Buxoro viloyati hayotini har vaqtdagidan yaxshiroq yoritishga harakat qilmoqda. Gazeta istiqloq mafkurasini shakllantirish, yosh avlodni iymon e'tiqodli, vatanga sadoqatli qilib tarbiyalash, bozor munosabatlarini rivojlantirish, qishloq xo'jalikda islohotlarni amalga oshirish, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, Buxoro shahrini obodonlashtirish va undagi asori atiqalarni asrab-avaylash mavzulariga doimiy e'tibor bermoqda⁴⁶.

Gazeta mustaqillik davrining yirik korxonasi bo'lgan Buxoro neftni qayta ishlash zavodi qurilishida muxbirlar lavozimi tashkil qilib, ikki yil mobaynida qurilishning borishini muntazam yoritib turdi. Buxoro shahriningning 2500 yillik

⁴⁵ Niyozmurodov A. Istiqloq bergan imkoniyat // 20.000-uchrashuv "Buxoronoma" gazetasi 20.000-soni chiqqaniga bag'ishlangan publisistik risola. Buxoro, 2007. -B. 8.

⁴⁶ Naimov N. Buxoronoma. O'zbekiston milliy ensklopedyasi. B. 2. - T.: O'zME nashriyoti, 2005. - B. 271

yubileyi oldidan turkum maqolalar berdi. “Buxoronoma” gazetasi o’zining 20000 soni chiqishi munosabati bilan 2007- yilda “20000-son uchrashuv” nomli ilmiy publitsistik risola va 2010-yilda gazetaning 90 yillik tarixiga bag’ishlangan “Tarixga muxrlangan 90 yil” nomli kitobi nashr qilingan.

Tahririyatda iqtisodiyot, ijtimoiy masalalar, huquq hamda xatlar va ommaviy ishlar bo‘limlari ishlab turibdi. Turli yillarda tahririyatda mehnat qilgan Baqo Saidov, Habib Abdullayev, Toshpo‘lat Hamid, Baxshullo Saidov, Halil Qodirov, Ahmadjon Niyozmurodovlar “Respublikada xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi”, “Respublikada xizmat ko‘rsatgan jurnalist” unvonlariga sazovor bo‘lishgan. Bugungi kunga kelib “Buxoronoma” gazetasi sahifalarida mamlakatimiz siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy sohalariga oid maqolalari o’zining tarixiy ahamiyati va manbaviy xususiyati alohida ahamiyat kasb etadi.

II Bob. “Buxoro haqiqati” va “Buxoronoma” gazetalarida

Zarafshon vohasi tarixi masalalarininig yoritilishi.

2.1. Gazeta sahifalarida Buxoro tarixi masalalarga oid maqolalar tasniflash

O'zbekiston tarixining eng qadimiy sivilizatsiya markazlaridan biri Zarafshon vohasining quyi qismi hisoblangan Buxoro vohasini tarixini tadqiq qilib o'rganish XIX asrning ikkinchi yarmi XX asr boshlarida ham tarixchilarning doimo diqqat markazida bo'lib kelgan. Ular tarixiy tadqiqot va izlanishlari natijasida vujudga kelgan ma'lumotlarini qator ilmiy risolalarda, monografiyalarda chop etish bilan birga davriy matbuotda ham nashr etib borganlar. “Buxoriyi Sharif”, “Turon”, “Buxoro axbori”, “Ozod Buxoro” gazetalarida Buxoro vohasi tarixi, geografiyasi, madaniyatiga oid tadqiqotlar nashr etib borilgan. Keyinchalik shunday matbuot nashrlaridan “Buxoro haqiqati” va “Buxoronoma” gazetalarida tarixiy maqolalar barcha davrlarda uzluksizlik bilan atroflicha kengroq qilib yoritib borilgan.

“Buxoro haqiqati” va “Buxoronoma” gazetalarida sahifalaridagi tarixiy maqolalarni o'rganish, tahlil qilish jarayonida, biz ularni quyidagi yetti guruhga: manbashunoslik; numizmatika; toponimika kabi tarix fanining yordamchi sohalariga tegishli bo'lgan maqolalarga; vohaning qadimiy, ilk va o'rta asrlar tarixi; amirlik davri va BXSR tarixi; tumanlar tarixi; voha tarixida muhim o'rin tutib iz qoldirgan shaxslar haqida ma'lumot beruvchi siyosiy portiretlar yo'nalishlariga ajratishimiz mumkin.

Gazetalar sahifalarida manbashunoslik tadqiqot yo'nalishiga doir A.Hamidov⁴⁷, N.Yo'ldoshev⁴⁸, H.To'rayev⁴⁹, B.Qozoqov⁵⁰, A.O'rinboyev⁵¹, B.Mirzoqulov⁵², N.Naimovlar⁵³ tomonidan o'ndan ziyod maqolalar chop etilgan.

⁴⁷ Hamidov A. Buxoro tarixi (Buxoro haqida yangi kitoblar). // Buxoro haqiqati. 1976-yil 30-iyun.

⁴⁸ Yo'ldoshev N. Nemis tilidagi Buxoro tarixi. // Buxoro haqiqati. 1989-yil 7-oktabr.

⁴⁹ To'rayev H. Amir Abdulahadxon qo'lyozmasi. // Buxoro haqiqati. 1990-yil 9-iyul.

⁵⁰ Qozoqov B. Buxoroning qadimiy kitoblari. // Buxoro haqiqati. 1997-yil 12-noyabr. Shu muallif. Masiri Buxoro-Hindiston sayohatining safarnomasi.(Buxoroning XIX asr savdo aloqalaridan lavhalar). // Buxoronoma. 2001-yil 20-iyun.

⁵¹ O'rinboyev A. Buyuk tarixiy asar (Buxoro tarixiga oid risola). // Buxoro haqiqati. 1997-yil 5-iyul.

⁵² Mirzoqulov B. Tarixga yangicha nazar (F.Qosimovning “Buxoro respublikasi” tarixshunosligi risolasi). // Buxoro haqiqati. 1997-yil 26-mart.

Birgina N.Yo'ldoshev tomonidan yozilgan "Nemis tilidagi ilk Buxoro tarixi" maqolasida Xerman Vamberi tomonidan nemis tilida yozilgan "Buxoro yoxud Movoraunnahr tarixi" kitobi va uning yozilish tarixi yoritib berilgan. Yoshligidan O'rta Osiyo markazi hisoblangan Buxoroga qiziqqan X.Vamberi 1863-yilning 12-iyunida Buxoroga yetib kelgan. Buxoroda 18 kun bo'lgan Vamberi sayohati davomida amirlikdagi siyosiy madaniy hayot, buxoroliklarning etnik tarixi, diniy urf-odatlar, tarixiy obidalar va ziyoratgohlari bilan yaqindan tanishgan va o'z asari uchun ma'lumot to'plagan.

Vamberi o'z kitobini 1871-yilda yozib tugatib Germanyaning Leypsig shahrida chop etgan bo'lib, kitob ikki jildidan iborat. Kitob 1873-yilda Povlevskiy tomonidan rus tiliga o'girilib "История Бухари или Транссаксония" nomi ostida bosilib chiqqan. 1923-yilda bu asar Fotix Karimiy va Burxon Sharif tomonidan o'zbek tiliga tarjima qilinib, 1924-yilda Moskvadagi Buxoro Respublikasining Maorif nozirligi qoshida chop etildi. Maqolani o'qib shuni xulosa qilib aytish mumkinki, "Buxoro yoxud Movoraunnahr tarixi" asarining manbaviy ahamiyati jihatdan gazetada ma'lumot beriladi.

Yana bir ilmiy tadqiqot muallifi O'zFA Institutining Buxoro davlat muzeyi ilmiy mudiri B.Qozoqov tomonidan yozilgan ilmiy maqolada buxorolik mualliflarning XI asrga tegishli bo'lgan eng qadimgi manbalari haqida ma'lumot beriladi. Jumladan B.Qozoqov maqolasida quyidagilarni keltirib o'tadi: buxorolik mualliflarning eng qadimiy qo'lyozma asarlari XI asrga mansubdir. Nashr qilingan ro'yxatlarda bunday kitoblarning ikkitasi ma'lum. Birinchisi:1081-yilda Mustamli tomonidan Movoraunnahrda ko'chirilgan "Nurid al-Muridin" (Muridlar uchun nur) va ikkinchi qadimiy kitob 970-yilda Abu Bakar Ahmad tomonidan yozilgan tibbiyotga oid asardan 1085-yilda ko'chirilgan nusxa. Bu kitob 1965-yilda Eronda nashr etilgan⁵⁴. Ushbu maqolani va shunga o'xshash vohaning umumiy tarixi

⁵³ Naimov N. Xorijda qolib ketgan hujjatlar // Buxoro haqiqati. 1997-yil 10-dekabr.

⁵⁴ Qozoqov B. Buxoroning qadimiy kitoblari // Buxoro haqiqati. 1997-yil 12-noyabr.

haqida ma'lumot beruvchi asarlarning manbaviy ahamiyati haqida gazeta yetarlicha ma'lumotlarni bera oladi.

Gazetada Buxoro tarixiga bag'ishlangan oltmishdan ziyod maqolalar keltirilgan bo'lib, shundan Buxoro vohasining qadimgi davr tarixi masalalariga oid H.Toshpo'latovning "Tuprog'ini ko'zimga surtay", N.Tursunovning "Asrlar silsila osha", S.Yusupovning "Shundan boshlangan (Buxoroning sug'orilish tarixi haqida)", hamda A.Muhammadjonovlarning Qadimgi Buxoro (Buxoroning paydo bo'lishi) kabi maqolalarini⁵⁵, ilk va o'rta asrlar tarixiga oid "Qadim shaharlardan biri", "Tepaliklar haqida", "Temuriylar davrida Buxoro", "Foxira mo'jiza shahar" "Sharif shahar tarixi", "Buxoro arig'i" "Buxorxudotlar hokimligi" nomli maqolalarni⁵⁶, buxoroning yoshiga bag'ishlangan "Buxoroning yoshi nechada", "Buxoro tarixiga oid tadqiqot", "Buxoro-Parij:asrlar sadosi"(Buxoro 2500 yoshda), "Buxoro yoshi nechada" kabi maqolalarni⁵⁷ va B.Fattoxov, I.Ibrohimov, E.Yodgorov, Sh.Hayitov, J.Ismoilov, O.Vafojev, O.Bo'riyev, N.Yo'ldoshev, S.Aliyev, R.Aliyev, A.Xalilovlarning Buxoroning umumiy tarixiga⁵⁸ bag'ishlangan maqolalariga ajratishimiz mumkin. Bu maqolalarni o'rganib chiqib, tahlil qilish davomida Buxoroning tarixiga oid ma'lumotlarni ilmiy adabiyotlar va risola va

⁵⁵ Toshpo'latov H.Tuprog'ini ko'zimga surtay. // Buxoro haqiqati. 1973-yil 6-yanvar. Tursunov N. Asrlar silsila osha. // Buxoro haqiqati.1976-yil 16-yanvar. Yusupov S.Shundan boshlangan.(Buxoroning sug'orilish tarixi haqida) // Buxoro haqiqati. 1970-yil 23-sentabr. Muhammadjonov A. Qadimgi Buxoro (Buxoroning paydo bo'lishi) // Buxoro haqiqati. 1991-yil 18-dekabr.

⁵⁶ Almayev R. Qadim shaharlardan biri. //Buxoro haqiqati 1989-yil 19-avgust. Ergasheva B. Tepaliklar haqida. // Buxoro haqiqati. 1991-yil 21-iyun. Qosimov F. Temuriylar davrida Buxoro. // Buxoro haqiqati. 1996-yil 6-yanvar. Rashidov U. Foxira mo'jiza shahar. // Buxoro haqiqati. 1996-yil 16-yanvar. To'rayev H. Sharif shahar tarixi. // Buxoro haqiqati. 1996-yil 13-mart. Do'stmuhammedov P. Buxoro arig'i. // Buxoro haqiqati. 1997-yil 31-may. Buxorxudotlar hokimligi. // Buxoronoma. 2001-yil 30-may.

⁵⁷ Muxammedov X. Buxoroning yoshi nechada. // Buxoro haqiqati. 1975-yil 12-aprel. Barnoyeva J. Buxoro tarixiga oid tadqiqot. // Buxoro haqiqati. 1991-yil 23-oktabr. Yo'ldoshev N. Buxoro-Parij:asrlar sadosi.(Buxoro 2500 yoshda). // Buxoro haqiqati. 1997-yil 7-iyun. Rashidov U. Buxoro yoshi nechada. // Buxoronoma.

⁵⁸ Fattoxov B.O'tmishga nazar tashlab. // Buxoro haqiqati. 1966-yil 28-dekabr. Ibrohimov I. Zariruddan suv ichgan zamin. // Buxoro haqiqati. 1996-yil 16-oktabr. Yodgorov E. Oy va Lola shahrimiz ramzi. // Buxoro haqiqati. 1996-yil 2-mart. Hayitov Sh. Yo'llari tutashgan shahar (Buxoro shahri haqida). // Buxoro haqiqati. 1996-yil 1-may. Ismoilov J. Buxoroning ramziy darvozasi. // Buxoro haqiqati. 1997-yil 1-fevral. Vafojev O. Jahon ma'naviyat beshiklaridan biri. // Buxoro haqiqati. 1997-yil 23-iyun. Bo'riyev O. Ma'naviy qudrat namoyondasi (Buxoro tarixiga oid ma'lumot). // Buxoro haqiqati. 1997-yil 16-aprel. Yo'ldoshev N. Tabarruk zamin. // Buxoro haqiqati. 1997-yil 18-oktabr. Aliyev S.Cho'lpon nazdida Buxoro. // Buxoro haqiqati. 1997-yil 20-dekabr. Aliyev R. Buxoroning g'aroyib tarixi. // Buxoronoma. 2001-yil 18-mart. Xalilov A. Chinor sahroda esmaydi. // Buxoronoma. 2012-yil 28-fevral.

monografiyalardan olish bilan bir qatorda gazeta sahifalarida chop etilgan ma'lumotlardan ham birlamchi manba sifatida foydalanish mumkin.

Jumladan, Buxoro tarixining muhim tarkibiy qismlaridan Buxoroning sug'orilish tarixini tadqiq qilgan P.Do'stmuhammedov "Buxoronoma" gazetasi sahifasida Sirdaryo-Buxoro arig'i tarixi haqida ma'lumotlar keltiradi: Buxorogacha borgan Sirdaryo suvi shu daryoning o'rta qismida Xo'jand uyezdiga qarashli Qistanor qishlog'idan boshlanib biroz janubga qarab oqqan va Malik quduqlari va Mirzarabot o'rtasidan pochta yo'li orqali Qoratoqqa yaqinlashgan va o'zidan chap tomonda Nurota qo'rg'onini qoldirib, tog'ni aylanib janubi sharqqa burilgan va Vardonze shahridan quyiyoqdan Qorako'lgacha borgan.

Sirdaryo-Buxoro arig'ining boshi O'rinboy Arpa inshooti hozirgacha saqlangan. Ariqning yana davom ettirilganligini isbotlovchi dalil Mirzarabot bilan Malik oralig'idan o'tgan yo'l o'rtasida pishiq g'ishtdan qad ko'targan Sardoba va Ota imoratlari bo'lib, bu ko'hna yodgorliklar qadimgi Sirdaryo-Buxoro arig'ining aynan shu yerdan o'tganligidan dalolat beradi.

Bu arig'ning bizgacha ko'milib ketishining sababi XIX asr boshlaridayoq Buxoro amirligi va Qo'qon xonligi o'rtasida Jizzax va O'ratepa shaharlarini egallash uchun boshlangan to'xtovsiz qonli to'qnashuvlar sababli murakkab sug'orish inshootlaridan markaziy Eski Tuyatortar kanali izdan chiqqan natijada Sirdaryo-Buxoro arig'i ko'milib ketgan⁵⁹. Chunki ushbu arig'ga Eski Tuyatortar kanalidan suv quyilgan. Xulosa qiliganda Buxorogacha kelgan Sirdaryo-Buxoro arig'i va uning yo'q bo'lib ketish tarixi haqida asosiy manba sifatida gazeta sahifalarida ham ma'lumatlar keltirilgan bo'lib, ushbu ma'lumotlar Buxoroning sug'orilish tarixini o'rganishda manba bo'lib xizmat qiladi.

Gazeta sahifalarida voha tarixida muhim o'rin tutib iz qoldirgan siyosiy partiretlar haqida T.Halimov, N.Naimov, A.To'rayev, Jamol Maruf, F.Qosimov, Sh.Hayitov, O.Usmonov, A.Axmedov, M.Baqoyev, U.Rashidov, Z.Qurbonovalar

⁵⁹ Do'stmuhammedov P. Buxoro arig'i. // Buxoro haqiqati 1997-yil 31-may.

tomonidan yozilgan maqolalar keltirilgan⁶⁰. Jumladan, Sibir da savdo-sotiq qilib, Rossiya davlati nomidan Xitoyda elchilik vazifasini bajargan buxorolik savdogar Saidqul haqida Sh.Hayitov “Saidqul kim edi” sarlavhasi ostida “Buxoro haqiqati” gazetasida “Tarixning o’qilmagan sahifalari” rukni ostida Saidqul haqida qimmatli ma’lumotlarni keltiradi. XVII asrning 50-yillarida Rossiya Xitoy bilan aloqalarini tiklash maqsadida Baykov boshchiligidagi elchilarni Xitoyga yuboradi, lekin Xitoyning Manjurlar sulolasi elchilarni qabul qilmay, vaqtinchalik yopiq siyosat olib boradi.

Shundan so’ng Rus podshosi Aleksey Mixayilovich taklifi bilan 1656-yilda Sibir da savdo-sotiq qilgan buxorolik savdogar, “Malikul tujjor”(Savdogarlar boshqoni) nomi bilan Xitoyda ham mashhur bo’lgan Saidqul rus elchisi sifatida Xitoyga borib Rossiya-Xitoy sharnomasini imzolab, o’zaro savdo-sotiq va diplomatik aloqalarni o’rnatadi. Saidqul 1662 va 1664-yillardagi Xitoyga elchilik vazifasini ham muvaffaqiyatli bajargan⁶¹.

Saidqul so’nggi elchilik paytida podsholik xazinasidan mablag’ olib Moskva, Yaroslavl, Novgorod, Pskov yarmarkalaridan mahsulot xarid qilib, rus tatar vakillari hamrohligida Pekinga borganda Xitoy hukumati Saidqul sharafiga ziyofat uyushtirib, ziyofatdan so’ng imperatorning shaxsiy soqchilari uni va hamrohlarini Buyuk Xitoy Devorigacha kuzatib qo’yishgan. Saidqulga ko’rsatilgan izzat hurmatdan rus vakillarining hayratga tushganligi manbalarda qayd etilgan. Xulosa o’rnida aytganda professor, o’qituvchilar tomonidan yozilgan Saidqul va

⁶⁰ Halimov T. Abdixo’ja Jo’yboriy. // Buxoronoma. 1999-yil 22-dekabr. Chorbakrlar. // Buxoronoma 2000-yil 16-fevral, Nodirmuhammadxon. // Buxoronoma. 2001-yil 10-noyabr, Sulolaning yettinchi hukmdori (Amir Abdulahadxon) // Buxoronoma. 2002-yil 13-noyabr, Buxoro hukmdorlari (Imomqulixon to’g’risida) // Buxoronoma. 2003-yil 15-fevral. Naimov N. Amirning zurriyoti (Said Mansur Olimiy). // Buxoro haqiqati. 1997-yil 5-noyabr, Aldanganlar qismati (Germaniyada taxsil ko’rgan buxoroliklarning achchiq qismati). // Buxoro haqiqati. 1998-yil 10-yanvar, Atoulla Xo’jayev. // Buxoronoma. 2000-yil 13-may. To’rayev A. Amir Muzaffarning Rum sultonligiga maktubi (Amir Muzaffar haqida). // Buxoro haqiqati. 1995-yil 16-dekabr, Jamol Ma’ruf. Amir Sulton Buxoriy kim edi. // Buxoro haqiqati. 1996-yil 10-fevral, Qosimov F. Mirza Salimbek. // Buxoro haqiqati. 1996-yil 17-aprel, Ahad Hasan. Tug’shodaning onasi va Tegini begim. // Buxoro haqiqati. 1996-yil 8-may, Hayitov Sh. Saidqul kim edi (Buxorolik savdogar Saiqul haqida). // Buxoro haqiqati. 1996-yil 20-aprel, Amir Olimxon va afg’on amirlari. // Buxoronoma. 2002-yil 26-yanvar. Usmon O. Ma’navyat chinori (Shayx Yusuf Hamadoniy). // Buxoro haqiqati. 1996-yil 25-may, Axmedov A. Buxoroning oxirgi amirlari. // Buxoronoma. 2000-yil 17-iyun, Baqoyev M. Mulla Abduqahhor kim edi. // Buxoronoma. 2001-yil 4-avgust, Rashidov U. Buxorolik quloqlar (Qatag’on qurbonlari). // Buxoronoma. 2004-yil 28-avgust, Qurbonova Z. Haqiqat yiqiladi, ammo sinmaydi (Qatag’on qurbonlaridan Romitanlik Hamid Salimov). // Buxoronoma. 2012-yil 29-avgust.

⁶¹ Hayitov Sh. Saidqul kim edi (Buxorolik savdogar Saiqul haqida). // Buxoro haqiqati. 1996-yil 20-aprel.

unga o'xshash hukmdorlar nazariga tushgan tadbirkor, epchil, jahon bozorida o'z mavqeini topa olgan vatandoshlarimiz hayoti tarixi haqida gazetada keltirilgan ma'lumotlar orqali bilib olishimiz mumkin ekan.

Joy nomlarining paydo bo'lishi insoniyat tarixiy taraqqiyotining mahsulidir. Joy nomlari tarixning bir bo'lagi. Joy nomlarini o'rganuvchi fan toponimika hisoblanib, "Buxoro haqiqati" va "Buxoronoma" gazeta sahifalarida Buxoro va unga tutash hududlar toponimikasiga oid "Buxoro nomlari xususida", "Atamalar shunchaki qo'yilmagan", "Nomlar tarix darakchilari", "Nomlar ma'nosi o'tmish sadosi", "Tangri jamoli (Buxoro nomlari etimologiyasi haqida)", "Toponimlar milliy qadriyatlarimiz", "Toponimik obyektlar tarix guvohi" "Atamalar tarixi", "Atamalar tarixi (Olot atamasining kelib chiqishi)", "Toponimda tarix masalasi" nomli maqolalar keltirilgan⁶². Jumladan, professor o'qituvchi H.To'rayev "Toponimik obyektlar tarix guvohi" nomli gazetadagi maqolasida joy nomlarining kelib chiqishini quyidagicha turklumlaydi:

- ❖ U yoki bu joyning tabiati, tabiiy geografiyasi, tabiiy sharoiti bilan bog'liq joy nomlari: Ko'k saroy, Ko'hibaland, Shahrisabz, Toshloq;
- ❖ Aholining mashg'ulotini bildiruvchi joy nomlari: Kosagaron, Degrez, Holvagaron, Kamchinbof;
- ❖ Aholining etnik mansubligini aks ettiruvchi joy nomlari: Bahrin, Qovchin, Arg'un, Qiyot, O'zbekon, Arabon⁶³.

Olim o'z tadqiqotida yana Buxorodagi ko'plab joy nomlari va ularning kelib chiqishiga tarixiga to'xtalib: Ashtarxoniylar Ubaydulloxon tomonidan Talipoch darvozasi yaqinida 1709-yilda barpo etilgan ulkan bog' o'rtasidagi muhtasham Xonobod koshonasini, shu xon sharafiga Xonobod deb atalganligini keltirib o'tadi.

⁶² Nazarov I. Buxoro nomlari xususida. // Buxoro haqiqati. 1969-yil 18-yanvar, G'aybullayev S. Atamalar shunchaki qo'yilmagan. // Buxoro haqiqati. 1986-yil 18 sentabr, Naimov S. Nomlar tarix darakchilari. // Buxoro haqiqati. 1990-yil 19-yanvar, Nomlar ma'nosi o'tmish sadosi. // Buxoro haqiqati. 1990-yil 3-iyul, Muhammadjonov, A. Tangri jamoli (Buxoro nomlari etimologiyasi haqida) // Buxoro haqiqati. 1997-yil 23-aprel, Boboyeva D. Toponimlar milliy qadriyatlarimiz. // Buxoronoma. 2005-yil 16-iyul, To'rayev H. Toponimik obyektlar tarix guvohi. // Buxoronoma. 2005-yil 17-sentabr, Tursunova M. Atamalar tarixi. // Buxoronoma. 2007-yil 28-mart, Yusupov Y. Atamalar tarixi (Olot atamasining kelib chiqishi) // Buxoronoma, Rustamov A. Toponimda tarix masalasi. // Buxoronoma. 2010-yil 15-dekabr.

⁶³ To'rayev H. Toponimik obyektlar tarix guvohi. // Buxoronoma. 2005-yil 17-sentabr.

Buxorodagi shunga o'xshash toponimlar, ularning tarixi va sovet yillarida mafkura asosida toponimlarning o'zgarib borishi haqida "Buxoronoma" gazetasi sahifasining keying yillaridagi nashrlarida ham ma'lumotlar berib borilgan.

Jumladan, gazetaning "Toponimda tarix mujassam" nomli maqolada quyidagi ma'lumotlar keltirib o'tiladi: Sho'ro yillarida aksaryat ko'cha guzarlari "o'tmish sarqiti" tamg'asi ostida yangicha mafkuraviy nomlarga o'zgartirildi. Chorminor-"Калинин", Chashmai ayub-"Пятилетка", To'rxona-"Пионерская", Gulobod-"Советская Бухара" nomlari bilan o'zgartirilgan. Birgina "Свердлов" deb atalgan mahalla guzari aslida XVI asrda shu guzarni tashkil qilib bir necha madrasalar, yangi guzarlar qurdirgan shaxs Mirdo'stim sharafiga shuning nomi bilan atalgan. Ammo sovet yillarida bu nom "Свердлов" deb o'zgartirilgan.

Mustaqillik yillarida joy tarixiy nomlarining qayta tiklash barobarida mahallalarga va ko'chalarga ma'naviyatimiz darg'alari, milliy istiqlol yo'lida jon fido etgan adiblar, jamoat arboblari nomi qo'yildi. Bugungi kunda Buxoro shahridagi 65 ta mahalla va 289 ta ko'cha nomlari tarixiy jihatdan va milliy istiqlol g'oyasiga mos nomlar bilan atalmoqda⁶⁴. Zeroki, joy nomlarini saqlash, kelgusi avlodga asl holida yetkazish, unutilib ketilgan joy nomlarini qayta tiklash hozirgi kundagi muhim vazifalardan biri ekanligi "Buxoronoma" gazetasida ham o'z aksini topgan bo'lib, gazeta buxorodagi toponimik joylar, ularning tarixi haqida dalillar asosida ma'lumotlar keltirilgan va ushbu ma'lumotlar Buxoro toponimikasini o'rganishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

"Buxoro haqiqati" va "Buxoronoma" gazeta sahifalarida Buxoro toponimikasining davomi sifatida viloyatda tashkil topgan tumanlarning tarixi haqida ham maqolalar keltirilgan bo'lib, ushbu maqolalarda tumanlarnig tarixi, ularning tashkil topishga asos bo'lgan qo'rg'onlarning tarixiy nomlari va tuman sifatida tashkil topish tarixi yoritilgan. Quyidagi jadvalda gazetalardagi tumanlarning tarixiga bag'ishlangan maqolalar keltiriladi:

⁶⁴ To'rayev H. Toponimik obyektlar tarix guvohi. // Buxoronoma. 2005-yil 17-sentabr.

Buxoro vohasi tarkibidagi tumanlar tarixi masalalarga oid maqolalar

T/r	Maqola nomi	Muallifi	Gazeta nomi	Gazeta sanasi
1.	Qoqako'lining uzoq o'tmishi.	Y. G'ulomov	Buxoro haqiqati	1964-yil 28-iyun
2.	Vardonze afsonasi.(Vardonze tarixi)	R.Raupov	Buxoro haqiqati	1980-yil 14-fevral
3.	Kogon qishlog'i necha yoshda.	B.Qozoqov	Buxoro haqiqati	1989-yil 4-fevral
4.	Qorako'l qadimiy makon.(Qorak'ol tarixi)	Q.Jumayeva	Buxoro haqiqati	1988-yil 11-oktabr
5.	Qadimiy makon.(Qorak'olning o'tmishidan lavhalar)	B.Qozoqov	Buxoro haqiqati	1996-yil 14-dekabr
6.	Poykend.	Sh.Nurmatov	Buxoro haqiqati	1996-yil 16-noyabr
7.	Varaxsha qadimiy shahar.	H.To'rayev	Buxoro haqiqati	1997-yil 1-fevral
8.	G'ijduvonda shunday maskan bor. (G'ijduvon tarixi va Abduxoliq G'ijduvoniy haqida)	A.Pirmatov	Buxorono ma	2002-yil 2-fevral
9.	So'g'd durdonasi.(Poykent tarixiga bir nazar)	D.Hamroyeva	Buxorono ma	2003-yil 4-iyun
10.	Qorako'l tarixi.	B.Jumayev	Buxorono ma	2007-yil 9-may
11.	Atamalar tarixi:Shofirkon.(Shofirkon tarixi haqida)	Q.Rajabov	Buxorono ma	2007-yil 17-mart
12.	Romitan tarixi.	Q.Rajabov	Buxorono ma	2007-yil 3-mart
13.	Atamalar tarixi: G'ijduvon (G'ijduvon tarixi haqida)	U.Rashidov	Buxorono ma	2007-yil 21-mart
14.	Asrlar qaridan qalqigan Poykent.	A.Xalilov	Buxorono ma	2011-yil 24-avgust
15.	Qizil qum bag'ridagi noyob hudud.(Vardonze qo'rg'oni to'g'risida)	A.Kazakov	Buxorono ma	2012-yil 26-sentabr

O'zbekiston davlatchiligi boy tarixga ega bo'lib, xususan milliy davlatchiligimiz tarixida o'ziga xos davr hisoblangan Buxoro amirligi davlati tashkil topishi, amirlik davridagi ijtimoiy-siyosiy shart-sharoitlar, Buxoro amirligining shakllanish va rivojlanish bosqichlari, Buxoro amirligi markaziy va mahalliy boshqaruvining huquqiy asoslari, amirlikda amalga oshirilgan tashqi siyosiy va diplomatik munosabatlarning o'ziga xos xususiyatlari, sud tizimi, amirlikning ag'darilishi hamda amirlik ag'darilgandan so'ng Buxoroda 1418 kun yashagan BXSРning tarixi haqida gazeta sahifalarida "Chuqur o'rganilmagan mavzu (Mang'itlar davlat boshqaruvi)", "Buxoro qushbegilari", "Mang'it podsholari" "Buxoro bodobomchilari (Buxoro amrligida tashkil etilgan piyoda sarbozlardan iborat harbiy musiqachi guruhi)", "Buxoro amirligida harbiy ish", "Buxoro elchilarining Peterburg safari", "Buxoroning so'nggi amiri: yoki Said Olimxon farzandlarining taqdiri hamda uning xalq nomiga qoldirgan maktubi", "Bir arxiv ishi (Qushbegi arxivi hujjatlaridan)", "Buxoro amirning o'g'li", "Amirning buzulgan maktubi", "Buxoro inqilobi u qanday bo'lgan", "Hisor yurushi", "Hukumatning tarqatilishi", "BXSРda soliq siyosati"⁶⁵ nomli maqolalarda manbalarga tayanilgan holda malumotlar keltiriladi.

Jumladan, "Buxoronoma" gazetasi sahifasidagi "BXSРda soliq siyosti" nomli maqolada 1920-1924-yillarda mavjud bo'lib turgan Buxoro Respublikasining soliq siyosatiga oid ma'lumotlar tarixchi olimlar Sh Hayitov, K.Raxmonovlar tomonidan "Buxoro axbori" gazetasini manbaviy o'rganish orqali o'rganib quyidagilarni qayd etadila: Buxoro Respublikasi e'lon qilingandan keyin

⁶⁵ Muridov U. Chuqur o'rganilmagan mavzu (Mang'itlar davlat boshqaruvi). // Buxoronoma. 2001-yil 13-iyun, Rajabov Q. Buxoro qushbegilari, // Buxoronoma. 2005-yil 15-oktabr, Fayziyev R. Mang'it podsholari. // Buxoronoma. 2001-yil 9-avgust, Yusupov Sh. Buxoro bodobomchilari (Buxoro amrligida tashkil etilgan piyoda sarbozlardan iborat harbiy musiqachi guruhi). // Buxoronoma, Shukrullayev Y. Buxoro amirligida harbiy ish. // Buxoronoma. 2001-yil 13-yanvar, Sodiqov X. Buxoro elchilarining Peterburg safari. // Buxoro haqiqati. 1989-yil 14-oktabr, Nazarov O. Buxoroning so'nggi amiri: yoki Said Olimxon farzandlarining taqdiri hamda uning xalq nomiga qoldirgan maktubi. // Buxoro haqiqati. 1993-yil 19-oktabr, To'rayev H. Bir arxiv ishi (Qushbegi arxivi hujjatlaridan). // Buxoro haqiqati. 1987-yil 4-aprel, Amirning buzulgan maktubi. // Buxoro haqiqati. 1990-yil; 18-avgust, Rashidov U. Buxoro inqilobi u qanday bo'lgan. // Buxoro haqiqati. 1995-yil 23-avgust, Nuriddinova N. Hisor yurushi. // Buxoro haqiqati. 1996-yil 24-aprel, Naimov N. Hukumatning tarqatilishi. // Buxoro haqiqati. 1997-yil 24-dekabr, Hayitov Sh. BXSРda soliq siyosati. // Buxoronoma. 2003-yil 19-iyul.

mamlakat ahvoli achinarli bo'lganligi, xalqning iqtisodiy nochorligi tufayli surunkasiga ikki yil hukumat umumkan soliq olmagan.

Buxoro Respublikasining moliyaviy ahvoli 1923-yilga qadar qog'oz aqcha pul evaziga o'nglab turilgan. Lekin uchinchi yil xalqqa soliq solish siyosati yurutilib aholiga ushr, zakot singari soliqlar solingan. Ushbu soliqlarning miqdori umumiy daromad yuz foiz bo'lsa undan o'n foizi miqdorida, kambag'al oilalardan esa ikki yarim foiz miqdorda qilib belgilangan⁶⁶.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki Buxoro vohasi tarixi qadim o'tmish zarvaraqlariga borib taqaladikim, buni o'rganib tadqiq qilish va kelajak avlodga o'rgatib borish tarixiy taraqqiyotning muhim shartidir. "Buxoro haqiqati" va "Buxoronoma" gazetalari sahifalarida davrning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy masalalari bilan bir qatorda, vohaning tarixiga oid ma'lumotlar ham keltirilgan bo'lib, biz yuqorida ushbu ma'lumotlarni guruhlariga bo'lgan holda tahlil qildik. Ushbu ma'lumotlar vohaning tarixini o'rganib kelajak avlodga yetkazishda o'z davrining asosiy manbasi bo'lib xizmat qila oladi.

2.2. Buxoro vohasidagi tarixiy yodgorliklar va ularning ta'mirlanish tarixi masalalari matbuot sahifalarida

Tarixiy va madaniy yodgorliklar xalqimizning ma'naviy qiyofasini shakllantirishda, yosh avlodda vatanparvarlik va milliy iftixor tuyg'ularini tarbiyalashda muhim o'rin tutadi. Shuning uchun ham istiqlol yillarida respublikamizda tarixiy va madaniy yodgorliklarni muhofaza qilish, ularni tiklash va ulardan foydalanishga katta e'tibor berilmoqda.

Tarixiy obidalar va madaniy yodgorliklarni asrash va qayta tiklash O'zbekistonda davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Bu borada Prezidentimiz I.A.Karimov quyidagilarni ta'kidlagan edi: "Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridan ajdodlarimiz tomonidan ko'p asrlar mobaynida yaratib kelingan g'oyat

⁶⁶ Hayitov Sh. BXSrdagi soliq siyosati. // Buxoronoma. 2003-yil 19-iyul.

ulkan, bebaho ma'naviy va madaniy merosni tiklash davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan nihoyatda muhim vazifa bo'lib qoldi"⁶⁷.

Hozirgi kunda respublikada 7216 ta yodgorlik davlat muhofazasiga olingan bo'lib, shundan 2248 tasi me'morchilik, 1695 tasi arxeologik yodgorliklardir. Respublika hukumati ushbu yodgorliklarni saqlash, ularning ayrimlarini qayta tiklash, tarixiy obidalardan unumli foydalanishga qaratilgan qator chora-tadbirlarni ishlab chiqib, uni qadam-baqadam amalga oshirib kelmoqda.

Istiqlol yillarida respublika hukumati tarixiy va madaniy yodgorliklarni qayta tiklash ishiga katta e'tibor berdi. Bu ishlar asosan davlat byudjeti hisobidan amalga oshirildi. Ayni vaqtda homiylik, xayriya jamg'armalari va "Oltin meros" jamg'armasining imkoniyatlari ishga solindi. Natijada mustaqillik yillarida bu sohaga sarf qilingan mablag'lar yildan-yilga oshib bordi, tarixiy va me'moriy yodgorliklar restavratsiya qilindi va qayta ta'mirlandi.

Agar sobiq ittifoq davrida respublikadagi tarixiy va madaniy yodgorliklarni ta'mirlash va tiklash ishlariga 1989 yilda 10,28 mln rubl ajratilgan bo'lsa, mustaqillikning dastlabki, 1992 yilda respublika byudjetidan ajratilgan mablag'lar hajmi 65,4 mln rublni, 1996 yilda esa 592 mln so'mni tashkil etdi⁶⁸.

"Buxoro haqiqati" va "Buxoronoma" gazetasi sahifalarida Buxoro vohasidagi tarixiy yodgorliklar va ularning ta'mirlanish tarixi masalalarga oid maqolalar ham chop etilgan. Gazeta sahifalarida ma'muriy inshoot binolaridan Ark va Sitorai Moxi Xossaga bag'ishlangan O.Jo'rayev, N.Naimov, X.Ahmedov, N.Yo'ldoshev, A.Xalilovlarning⁶⁹ maqolalari, shu bilan birga, Buxorodagi muqaddas qadamjoylar, masjid, madrasalar, qadimgi savdo inshootlari va

⁶⁷ Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. Т.: Ўзбекистон, 1997. -Б. 137.

⁶⁸ Расулов М. Мустақиллик йилларида Ўзбекистонда тарихий ва маданий ёдгорликларнинг муҳофаза қилиниши ва тикланиши / "Ўзбекистон тарихининг долзарб масалалари: асосий йўналишлари ва ёндашувлар" Республика ёш олимларининг биринчи илмий конференцияси материаллар тўплами. Т.:Шарк,2009. -Б.304

⁶⁹ Yo'ldoshev N. Siyovush qabri. // Buxoro haqiqati.1997-yil 21-may.Ahmedov X. Qadimiy ark qaytadan yuz ochadi // Buxoro haqiqati.1992-yil 28-noyabr. Naimov N. Qadimiy ark yasharadi // Buxoro haqiqati.1982-yil 30-noyabr. Naimov N. Qadimiy ark yasharadi // Buxoro haqiqati.1982-yil 30-noyabr. Naimov N. Qadimiy ark yasharadi // Buxoro haqiqati.1982-yil 30-noyabr.Jo'rayev O. Moxi Xossaning yangi jamoli. // Buxoro haqiqati.1974-yil 24-oktabr Xalilov A. Ark qal'asidagi bunyodkorlik. // Buxoro noma. 2012-yil 22-avgust.

karvonsaroylar xususidagi J.Mirzaahmedov, R.Almayev, A.Mo'minov K.Jumayev, N.Naimov, A.Xalilov, S.Buxoriy, A.Xalimov, Yo.Yusupov va S.Salimovlarning⁷⁰ ilmiy maqolalari keng o'rin olgan. Ushbu maqolalarda vohadagi tarixiy yodgorliklar va ularning ta'mirlanish tarixi masalalariga bag'ishlangan.

Jumladan, Buxorodagi ma'muriy inshoot binolaridan Ark tarixi to'g'risida N.Naimov, X.Ahmedov, A.Xalilovlovlar gazeta sahifalaridagi ilmiy maqolalarida yoritib berganlar. Arkning asoschilari Siyovush va Afrosiyob tarixiy shaxslar bo'lganligi N.Yo'ldoshev maqolasida quyidagicha izohlab beriladi: "Siyovush otasi Kaykovus Ahamoniylar sulolasidan bo'lib VI asrda Eronda hukmronlik qilgan. Abu Rayhon Beruniy Siyovushnig o'g'li Kayxusrav Xorazmda hukmron bo'lganligini tarixiy faktlar asosida tasdiqlaydi. Buxoro majusiylari Afrosiyob va Siyovush qabrini muqaddas bilib sajda qilganlar. Buxoro, Samarqand, Xorazm xalqlari qadimgi an'analarni davom ettirib Buxorolik musulmonlar XX asr boshlariga qadar Siyovushni shahid bo'lganlar qatorida, qabrlarini ziyoratgohga aylantirib, Siyovushni vali (madadkor) deb bilganlar".

Yuqoridagi dalillardan tashqari Siyovush zamonida yashab kelayotgan mahalliy urf odatlar va an'analar borki uning tarixiy shaxs ekanligidan dalolat beradi. Birinchidan, Buxoro arkining sharqiy darvozasi Dari Kohfurushon (Somonfurushon) deb atalgan chunki, darvozaning pastidagi maydonchada Buxoro arki paydo bo'lgandan buyon dehqonlar somon, beda va boshqa mol ozuqalarini keltirib sotganlar. Ikkinchi dalil Siyovush shahid bo'lgandan keyin "Dari Kohfurushonda" ko'milgani uchun bu darvoza "Dari Go'riyon" deb atalgan. Qadimgi so'g'd va fors tilida "qabr"-go'r degan manoni bildiradi.

Uchinchi dalil Siyovushning xotirasiga bag'ishlab aytiladigan Mug'lar yig'isi marsiyasi, o'zgargan holda vafot etgan kishining o'lgan kuni, "begoyi

⁷⁰ Mirzoahmedov J. Bebaxo yodgorlik. // Buxoro haqiqati. 1997-yil 30-iyul. Almiyev R. Xusnkor Chor bakr. // Buxoro haqiqati.1999-yil 10-aprel. Jumayev K. Xayroboddagi Chashmai Ayub maqbarasi. // Buxoronoma.2004-yil 13-mart. N.Naimov. Mag'oki Attoron // Buxoro haqiqati. 1997-yil 5-fevral. Xalilov A. Niliy gumbaz chiroyi. // Buxoro haqiqati. 1997-yil 18-iyun. Xalilov A. Niliy gumbaz chiroyi. // Buxoro haqiqati. 1997-yil 18-iyun. Buxoriy S. Miri Arab madrasasi. // Buxoro haqiqati.1997-yil 4-iyul. Xalimov A. Ko'hna madrasaning yangi shuhrati. // Buxoronoma.2007-yil 11-aprel. Yusupov Yo. Tim va toqlar // Buxoro haqiqati.1969-yil 26-aprel. Salimov S.Tijorat odobi // Buxoro haqiqati.1991-yil 16-noyabr.

juma”, “qirq oqshomi” marosimida oymullalar tomonidan marsiya aytish odat tusiga kirib qolgan. To’rtinchi dalil Navro’z kuni ertalab erkakalar tomonidan xo’roz so’yilib, bu an’ana ham o’zgartirilgan holda saqlangan. Navro’zda xo’roz so’yish odatga aylanib, buni buxoroliklar “Qozon to’ldi”deb ataydilar⁷¹.

Ushbu me’moriy majmuaning qadimiy inshootlardan bo’lishiga qaramay mustaqillik yillarigacha bo’lgan davrda binoning ta’mirlanishiga yetarli darajda e’tibor berilmagan. Sovet hokimiyati yillarida Buxoro Xalq Sovet Respublikasi tomonidan qabul qilingan dastlabki dekretlarning birida Respublika xalq maorif nozirligi huzurida “San’at va tarixiy yodgorliklarni muxofaza etish seksiyasi” tuzilgan.

Seksiya ta’mirlash ishlarini qayta tiklashdan boshlab 1921-1922-yillarda Arkning g’arbiy devori ta’mirlandi. Lekin keyinchalik ta’mirlash ishlari olib borilmagan edi. Ark devorlarini tiklashga 1 mln so’m kerakligi, ushbu mablag’ning yetarli emasligi va O’zbekiston SSR Madaniyat Ministirligining Restavratsiya ilmiy tadqiqot institutui tomonidan faqat uning g’arbiy devorini ta’mirlash bo’yicha loyiha ishlab chiqilib, devorning janubiy qismining ta’mirlanish rejasi ishlab chiqilmaganligi, Arkni ta’mirlash ishlariga partiya, sovet tashkilotlari va jamoatchilik birlashmalari diqqatini jalb qilish lozimligi N.Naimovning maqolasida aytib o’tilgan. XX asrning 80-yillarida arkni tamirlash ishlari yetarli darajada e’tibor berilmagan. Ushbu davrda ark devorni ta’mirlash uchun bor yo’g’i 2 mingta g’isht ajratilgan edi⁷².

O’zbekiston mustaqillikka erishgandan so’ng, mustaqillikning dastlabki yillarida Buxoro ilmiy ta’mirlash ustaxonasining bunyodkorlari A.Xo’jayev, M.Xo’jayev, S.Raxmatov, A.Pak, U.Troshuv, S.Rustamov, N.Fozilov, B.Xoldorov va X.Salomovlar Ark devorlarini qaytadan tiklash tadbirini amalga oshirish tashabbusi bilan chiqqanlar. Sarmoya yetishmasligi sababli Arkni ta’mirlash tadbirlarini amalga oshirish uchun viloyat miqyosidagi korxonalar va tashkilotlar

⁷¹ Yo’ldoshev N. Siyovush qabri. // Buxoro haqiqati. 1997-yil 21-may

⁷² Naimov N. Qadimiy ark yasharadi. // Buxoro haqiqati.1982-yil 30-noyabr.

ushbu ta'mirlashni amalga oshirish uchun Sanoat qurilish bankining 002700050 hisob raqamiga mablag' o'tkazishgan⁷³.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 23-martda qabul qilgan "2020-yilgacha Buxoro shahri hududidagi madaniy meros obyektlarni ilmiy o'rganish, ta'mirlash va ularni zamonaviy foydalanishga moslashtirish bo'yicha davlat dasturi to'g'risidagi" qaroriga muvofiq Ark qal'asi qayta ta'mirlandi. Ta'mirlash ishlariga poytaxtdagi "Meros chashmasi" korxonasi loyihalovchilari jalb qilindi⁷⁴. Ular obyektni asl qiyofasini saqlagan holda qal'a devorini avvalgidan ham mustahkamlash tarxini tayyorlab berdilar.

Buxoro azaldan sharqning yetti iqlimga tanilgan qadimiy shaharlardan biridir. Bunday shuhratning sabalaridan biri shahardagi ulug'vor masjid va madrasalardir. Buxoro shahrining markazidagi ulug'vor inshootlaridan biri Poyi Kalon ansambli o'zining betakrorligi bilan ajralib turadi. Poyi Kalon ansambli tarkibidagi inshootlardan biri Masjidi Kalonning qayta-qayta yaratilish tarixiga nazar tashlab, Buxoroning rivojlanish va inqirozli bosqichlarini belgilash mumkin.

Arslonxon qurdirgan mahobatli masjid Buxoroda barpo etilgan birinchi sajdagoh emas. Narshaxiyning naql qilishicha, Buxorodagi dastlabki masjid Muslimxonning taxt vorisi Qutayba tomonidan 713-yilda bunyod etilgan. Qutayba bu sajdagohni budparastlar ibodatxonasi o'rnida qurdirgan. O'sha davrda islom dini endigina Buxoroga kirib kelayotgan edi. Xorun ar-Rashid zamonida Ark qal'asi yaqinida mo'min musulmonlar jamoa bo'lib, namoz o'qib, bir-birlaridan ibrat olishlari uchun jome masjidi qurildi. Somoniylar hukmdori Ahmadning o'g'li Said Nasr hukmronligi yillarida Masjidi Kalon qulab tushib, minglab odamlar halok bo'lgan. X asr boshida Abu Abdulloh Muhammad masjidni qaytadan bunyod etib bu bino 60 yil muqaddas sajdogoh sifatida xizmat qilgan. Ibn Sino, Rudakiy, Narshaxiy singari buyuk zotlar shu masjidga tashrif buyurganlar.

⁷³ Ahmedov X. Qadimiy ark qaytadan yuz ochadi // Buxoro haqiqati.1992-yil 28-noyabr.

⁷⁴ Xalilov A. Ark qal'asidagi bunyodkorlik. // Buxoronoma.2012-yil 22-avgust.

Masjidi Kalon saljuqiylar tomonidan XI asr o'rtalarida vayron etilgan edi. Shamsul Mulk masjidni qaytadan ta'mirladi. Uning minbar va mehrobi samarqandlik ustalar tomonidan tayyorlanib Buxoroga keltirilgan. Arslonxon hukmronligi yillarida jome masjidi ark qal'asi yonida joylashib istilochilar tomonidan vayronaga aylanganligi sababli masjidni Arkdan sharq tomonga qarab ko'chirishga qaror qilgan.

Shu maqsadda shahristondan ko'pgina hovli joylar sotib olinib, buxorolik me'morlar shaharsozlik tarixida ilk bor bu inshootning samarqandlik ustalar tomonidan yasalgan mehrob, minbar va maksuralarni yaxlit tarzda yangi joyga ko'chirishdi. 1221-yil 12-martda masjid bunyod etilib husni jamoli islom olamiga ko'z-ko'z qilindi. Hozirgi Masjidi Kalon Abdullaxon davrida qurib bitkazilgan. U Markaziy Osiyodagi eng yirik jome masjidi hisoblanadi Sho'rolar davrida Masjidi Kalon uzoq yillar don tashkilotining omborxonasi vazifasini bajargan⁷⁵.

Mustaqillik yillarida masjid faoliyati qaytadan tashkil etilib I.Karimovning Masjidi Kalonni ta'mir etish to'g'risidagi farmoniga binoan, masjid 1997-yilda ta'mirlash ishlariga alohida e'tibor berildi. Masjidning ta'mirlanib asl holiga keltirilishi to'g'risida A.Xalilov o'z maqolasida quyidagi ma'lumotlarni keltirib o'tadi: "Tamirlash ishlari Usta Shirin Murodov nomidagi Buxoro maxsus ilmiy-ta'mirlash ustasi Baxshullo Murodov ta'mirlovchilar brigadasiga topshirildi. Masjid gumbazidagi niliy koshinlarning 3700dan ziyodi asl holida saqlanib, 160ga yaqini yangi tayyorlangan bezaklar bilan almashtirildi. Masjid galeriyasida 288 ta kichik gumbaz ta'mirlandi, 239 ta ustun poydevori mustahkamlanib, 40 ta ustun qaytadan tiklandi. 126,2 x 81,6m kattalikdagi ulkan inshootda barcha suvoq ishlari qo'lda bajarilib Masjidi Kalon eng ko'rkam ziyoratgohlardan biriga aylantirildi"⁷⁶.

Poyi Kalon ansamblidagi salobatli obidalardan biri Minorai Kalon. Minorai Kalon qurgan usta nomining minoradagi belbog'larning birida aks etganligi "Buxoro haqiqati" gazetasining 1965-yil 27-iyul sonidagi nashrida quyidagicha

⁷⁵ Naimov N. Masjidi Kalon. // Buxoro haqiqati. 1997-yil 11-yanvar.

⁷⁶ Xalilov A. Niliy gumbaz chiroyi. // Buxoro haqiqati. 1997-yil 18-iyun.

izohlab berilgan: “Qoraxoniylardan Arslonxon tomonidan qurilgan Minorai Kalon ijodkori Usto Baqo bo’lib, me’mor binoni qurish davrida o’z nomini sirli yozuvlar bilan bitgan. Ma’lumki minora tanasi bir necha naqshdor halqalardan iborat bo’lib, ular orasi turli geometrik shakldagi bezaklar bilan to’ldirilgan”.

Minora o’rta qismidagi bir halqada kufiy harflar bilan “mim” harfi yuqorisida ortiqcha “ayn” bor, “alif” esa “lom” harfiga o’xshab ketadi, “yo” harfi esa “be” kabi yozilgan. Xatning oxiridagi ortiqcha “alif” harfi va yuqorisidagi “qof” harfiga tegishli ikki nuqta bor. Hamma ko’rsatilgan harflar qo’shib o’qilganda “Amole Baqo” ya’ni Usto Baqo jumlasini kelib chiqadi⁷⁷.

Buxorodagi eng katta ta’lim muassasalardan biri Miri Arab madrasasidir. Miri Arab madrasasining tarixi to’g’risida S.Buxoriy o’z ilmiy maqolasida Miri Arab nomi bilan mashhur bo’lgan zotning asl ismi Said Abdullohdir ekanligini ta’kidlab o’tgan. Shu bilan birga maqoladi U kishi Yamanning Hazarmavut mavzesida tug’ulgan. “Juxfat az-Zoiriy”da yozilishicha Hazarmavutda Hud Alayhissalomning qabrlari bo’lgan.

Said Abdulloh amir bo’lgan, lekin 22 yoshida dillariga alloh taollo ishqini paydo bo’lib, toju-taxtdan voz kechib Samarqandga keladilar va uyerda Xo’ja Kafshir guzarida Xo’ja Ahror Valiy suhbatlariga yetishadi. Qisqa vaqt ichida Xo’ja Ahrordan irshid xati olib, buyuk pir darajasiga yetishadi. Zayniddin Vosifiyning “Badoye ul vaqoye” asarida ta’kidlanishicha Mir Arab Turkistonning Sabron degan joyida koriz, Shofirkon, Vobkent, G’ijduvon ariqlarini qazdirib, Shofirkon rudi(arig’i)ni Ubaydulloxon ibn Sulton sharafiga Sulton obod deb ataganlar.

Asarda yana ta’kidlanishicha Miri Arab Ubaydulloxonning piri bo’lib, naqshbandiya tariqatining rivojlanishiga ulkan hissa qo’shgan. 1512-yil Erondan Najmi Soniy boshliq 80 ming qo’shin Movraunnahrga hujum qilganlarida Buxoro xoni Ubaydulloxon va Jonibek sultonlar qochganlarida, Mir Arab Turkistondan Buxoroga kelib uni jang qilishga chorlab, jangda g’alaba qilishini aytadi. 1512-yil

⁷⁷ Minorai Kalon. // Buxoro haqiqati.1965-yil 27-iyul

G'ijduvonda bo'lgan jangda lashkar jasorati va Mir Arab say-harakatlari natijasida Najmi Soniy qo'shinlari mag'lubiyatga uchratilgan.

G'alaba sharafiga Mir Arab 1530-yil Minorai Kalonning kun chiqar tomonida madrasa qurishni boshlaydi. Madrasa qurilishi 1536-yil tugab, Mir Arab madrasa qurilishi tugamay olamdan o'tganligi sababli madrasa qurilishini kuyovi shayx Zakariyo tugallaydi⁷⁸.

Madrasa diniy ta'limni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etgan. Buxoro shahri 1920-yilda sovet qo'shinlari tomonidan egallanishi natijasida madrasa va undagi boy kutubxona talanadi. 1945-yil o'zining ikkinchi tarixini boshlagan madrasada 33ta xatmona marosimi o'tkazilib mingdan ortiq diniy xodimlar tayyorlandi. Checheniston mamlakat prezidenti Ahmad Qodirov, Rossiya muftiylar raisi Ravil Gaynutdin, Qozon muftiysi Talgat Tadjuddin, Ozarbayjon muftiysi Olloshukur Poshshozoda dastlabki diniy saboqni Miri Arab madrasasida olishgan.

Mustaqillik yillarida Prezident I.Karimov tashshabbusi bilan madrasa faoliyatini tubdan yaxshilash uchun samarali ishlar olib borildi. O'zbekiston Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 22-avgustdagi qaroriga asosan mazkur madrasa diplomi davlat ta'lim hujjati deb e'tirof etildi⁷⁹.

Buxorodagi eski asosiy ko'chalar tutashgan Labi Hovuzni Buxoroni qalqib turgan yuragiga qiyos etishadi. Ilmiy tadqiqot muallifi A.Xalilov ushbu me'moriy majmuaning tarixini ochib berishga harakat qilib quyidagilarni keltirib o'tadi: "Labi Hovuz majmuasining birinchi inshooti Ko'kaldosh madrasasi 1568-1569-yillarda qurilgan. 160 hujradan iborat ushbu madrasada Zaliliy, Shukuriy, Abdulqodir Savdo, Maxtumquli, Ergash Jumanbulbul, Berdi Kerboboyev, Jalol Ikromiy kabi adiblar o'qishgan. Labi hovuz majmuasining ikkinchi inshooti 1622-yilda qurilgan Nodir Devonbegi xonaqohi hisoblanib, bino tuzulishi oddiy bo'lib, an'anaviy katta gumbaz va bir necha kichik xonalardan iborat. Bino ichkarisi

⁷⁸ Buxoriy S. Miri Arab madrasasi. // Buxoro haqiqati.1997-yil 4-iyul.

⁷⁹ Xalimov A. Ko'hna madrasaning yangi shuhrati. // Buxoronoma.2007-yil 11-aprel.

o'zining kengligi bilan ajralib turadi. Nodir devonbegi ushbu binoni tiklashdan avval uning oldida katta tosh hovuzni qurdirishgan.

Bu hovuz tarixga "Havzi bazo'r" ya'ni "zo'rlik hovuzi" nomi bilan kirgan. Bu iboraning arabcha yozuvidan 1620-yil, ya'ni hovuzning bapo etilish sanasi kelib chiqadi"⁸⁰. XX asrning 50-yillarida hovuz qurutilib, uning zinalarida tribunalar, tubida esa voleybol maydonchalari tashkil etilgan. 60-yillarda madaniy jamoatchilik talabi bilan hovuzga suv quyilib asl holiga keltirilgan.

Labi hovuzning uchinchi inshooti sifatida qurilgan Nodir devonbegi madrasasi 1622-23-yillarda qurilgan bu binoning ochilish marosimida Imomqulixon uni to'satdan madrasa deb e'lon qilgan. Karvonsaroy qaytadan qurilib madrasaga moslashtirilgan. 1920-yil sentabrga bu binoga Mirzo Narzullo kulubi nomi berilgan. Keyinchalik bino yosh tomoshabinlar teatriga, tikuvchilik ustaxonasiga aylantirilgan. 1970-yilda yodgorlikni ta'mirlash jaroyinida ajoyib sur'at "tipirchilab turgan oxuni changallab quyosh tomon uchayotgan ikki afsonaviy qush tasviri" yaratildi. Mustaqillik yillarida buxorolik naqqoshlarning go'zal bezaklari bilan jilolangan bu bino chet el sayyohlarining sevimli maskaniga aylangan.

Buxoro aholisi VIII asrda islom dini kirib kelgunga qadar zardushtiylik diniga e'tiqod qilib, aholining bu dinga sig'inganligini ko'rsatuvchi Mag'oki Attori masjidi hisoblanadi. Tarixchi mutaxassis N.Naimov o'z ilmiy tadqiqotlardan birini Mag'oki Attori masjidi va unda olib borilgan izlanishlarga bag'ishlaydi. Olim o'z ilmiy tadqiqotlarini Narshaxiy ma'lumotlariga tayangan holda yoritib beradi.

Buyuk tarixnavis Muhammad Narshaxiy Abul Hasan Nishopuriyning "Xazoniy ul-ulum" asariga tayanib, qadim zamonlarda buxoroliklar otashparastlar mabudasi Anaxitaga sig'inganligi va uning but va sanamlarini har yili sotib olganliklarini, bu but va sanamlar hozirgi Mag'oki Attori masjidi atrofida yilida 2 marta o'tkaziladigan gavjum bozorda xarid qilinganligini, bozorda o'n ming do'kon bo'lib har safar ellik ming dirhamlik savdo qilinganligini va podsho savdo-

⁸⁰ Xalilov A. Labi hovuz // Buxoro haqiqati. 1997-yil 18-aprel.

sotiqni rivojlantirish maqsadida bu yerda otashparastlar butxonasini qurdirganligi N.Naimov o'z maqolasida qayt etib o'tadi.

Arab istilosidan keyin aholiga islom dinini singdirish maqsadida butxona va bozor yo'q qilib tashlangan. Masjid XII asrda qayta bunyod etilib uning janubiy peshtoq qismi hozirgi davrgacha saqlangan. Bu peshtoqning yaratilish maqomi islomgacha bo'lgan fors me'morchiligi uslubida qurilgan⁸¹.

O'tgan asrning 30-yillarida V.Shishkin rahbarligidagi olimlar masjid atrofida izlanishlar olib borib, binoning eng qadimgi janubiy peshtoqi ostini 6 metr chuqurlikda qazib, masjid ostidan otashxona qoldig'ini topishdi. Qazishmalar natijasida turli davrlarda obida o'rnida ustma-ust uchta bino barpo etilganligi aniqlandi. Eng pastda dastlabki birinchi qurilgan qadimgi otashparastlar butxonasining uch metrlik paxsa devori ochilgan. Keyingi ikkinchi devor Abu Muslim otashxonani vayron qilib, o'rniga qurdirgan va Mag'oki Attoron ya'ni chuqurlikdagi bozor deb atalgan devor qoldiqlari.

Tadqiqotchilar masjidning eng qadimgi binosini Sankt-Peterburgdagi Ermitajda qo'yilgan Sosoniylar davriga mansub laganda aks ettirilgan feodal qasrga monand bo'lgan degan fikrni bildirishgan. Masjidning sharqiy peshtoqi va qolgan butun qismi XVI asrda Ubaydulloxon davrida bunyod etilgan. 1860-yilda Buxoroda bo'lib o'tgan qattiq zilzila obidaga shikast yetkazib uning qo'sh gumbazi qulab tushgan.

1970-yilda Abu Ali Ibn Sinoning ming yillik yubileyiga tayyorgarlik munosabati bilan obida memor V.Filiminov loyihasi asosida tubdan ta'mir etilgan. Mustaqillik yillarida Respublikada xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi Aminjon Salomov rahbarligidagi ta'mirlovchilar obidaning to'rt asr oldingi qiyofasini tikladilar.

K.Jumayev, A.Mo'minov, J.Mirzaahmedov, R.Almeyerlar gazeta sahifalaridagi ilmiy maqolalarida Buxoroning muqaddas qadamjolaridan Buxoro viloyat Vobkent tumanidagi Chashmai Ayub maqbarasi va Chor Bakr memoriy

⁸¹ N.Naimov. Mag'oki Attoron // Buxoro haqiqati.1997-yil 5-fevral.

majmuasi haqida yoritib berganlar. Jumladan J.Mirzaahmedov, R.Almeyerlar o'z maqolalarida Jo'ybor xo'jalarining Buxoro tarixida tutgan o'rni, Chor Bakr majmuasining tarixi haqida quyidagilarni keltirib o'tadilar: "Buxoro Arkining g'arb tarafidan 4-5 km uzoqlikda joylashgan eng yirik tarixiy obidalaridan biri Chor Bakr majmuasi hisoblanadi. Chor Bakr nomi ko'proq o'rta asrlarda keng tarqalgan bo'lib, X asrda yashab o'tgan va shu arxitektura majmuasi atrofida joylashgan, olimlarning izlanishlariga ko'ra to'rtta emas ikki bakr: Xo'ja Abu Bakr Saad va uning o'g'li Imom Abu Bakr Ahmadlarning dafn qabrlari bilan mashhur".

Ulardan Buxoro va Markaziy Osiyo tarixida katta o'rin tutgan jo'ybor shayxlaridan Muhammad Islom ko'proq Xo'ja Jo'yboriy nomi bilan mashhur. Muhammad Islomni bobolari 12 yoshidan boshlab XVI asrning birinchi yarmida yashab o'tgan xalqda Maxdum A'zam nomi bilan mashhur bo'lgan Xo'ja Kosoniyga muridlikka berganlar.

1549-yil Maxdum Azam vafot etgach uning hamma muridlari shayx o'rnini bosgan Xo'ja Jo'yboriyga meros sifatida o'tgan. Ularning orasida Sulton Iskandar va uning o'g'li Abdullaxon bo'lgan. Xo'ja Jo'yboriy shayboniylar sulolasi ichida uzliksiz davom etayotgan taxt uchun kurashda Abdullaxonga iqtisodiy, ma'naviy va ruhiy yordam berdi. Bu madadlar evaziga Abdullaxon 1557-yil saltanat taxtini egalladi. Abdullaxon Xo'ja Jo'yboriyni ixlos qo'ygan murid sifatida bilib, o'z shayxlarining ota-bobolari Abu Bakr Saad va Imom Abu Bakr Ahmadsharfiga maqbara, xonaqoh, masjid, madrasa va xitoy bog'lariga o'xshash chor bo'g'lar qurdirgan⁸².

XVI-XVII asr oralig'ida yashgan Tojiddin jo'ybori Chor Bakrni qurilish ishini tugatib, majmuaning bosh me'moriy inshootlarini shakllantirish ishini poyoniga yetkazdi. XVII asrda Xo'ja Saadning buyurtmasiga binoan 4 ta yangi xazira barpo etilgan⁸³. Me'moriy majmua 30 dan ortiq imoratlardan tashkil topgan. Bu yerdagi minglab nafis did bilan qurilgan xaziralar qadimgi so'g'diylar

⁸² Mirzoahmedov J. Bebaxo yodgorlik. // Buxoro haqiqati.1997-yil 30-iyul.

⁸³Almiyev R. Husnkor Chor bakr. // Buxoro haqiqati.1999-yil 10-aprel.

xilxonalarining qurilish an'analaridan kelib chiqqan. Bu majmua o'tgan asr davomida yillar shamoli va ofatlaridan katta talofat ko'rib tamir talab holga kelib qolgandi.

Istiqlol yillarida ushbu me'moriy majmuaning qayta ta'mirlanib asl holiga keltirilishi to'g'risida "Buxoro haqiqati" gazetasining 1999-yil 15-may sonida "Chor Bakr tarixiy yodgorligini ta'mirlash" sarlavhasidagi maqolada quyidagi ma'lumotlar keltiriladi: 1999-yil me'moriy majmuani ta'mirlash bo'yicha ish boshlanib, shu yil Buxoro viloyat hokimi tomonidan 1-aprel kunini "Chor bakr atrofini ta'mirlash va uni obodonlashtirish kuni boshlangan" kun deb e'lon qildi".

"Buxoroyi sharif" jamg'armasi huzurida S.Baratov boshchiligida memoriy majmuani ta'mirlash direksiyasi tashkil etildi. Yodgorlikni ta'mirlash bo'yicha bosh pudratchi tashkil etilib, "Shirin Murodov nomidagi maxsus ilmiy ishlab chiqarish va ta'mirlash" ustaxonasi belgilandi. Ularga Samarqand, Qarshi, Shahrisabzdan mutaxassislar jalb qilingan. Respublika budjetidan ta'mirlash ishlarini tezlashtirish maqsadida 20 mln so'm mablag' ajratilgan. Viloyat bosh memori Maxmud Axmedov boshliq ijodiy guruh loyihasi asosida Chor Bakr majmuasida ta'mirlash va obodonlashtirish ishlari amalga oshirilib memoriy majmua asl holiga keltirib ta'mirlandi⁸⁴.

Shahardagi savdo karvonsaroylari va tim, toqlar haqida S.Salimov, Yo.Yusupovlar gazeta sahifalarida ilmiy ma'lumotlar berib, savdo karvonsaroylari soni va nomlanishi to'g'risida S.Salimov quyidagi ma'lumotlarni beradi: "Buxoroi sharifda 60 dan ortiq karvonsroylar bo'lib ular: "saroyi jannatmakon", "saroyi shonatarosh", "saroyi chitti-chatti", "saroyi sanduq", "saroyi latta", "saroyi hindu", "saroyi kapkar", "saroyi chinni", "saroyi shahar", "saroyi po'st" va "saroyi poyi ostona" kabilar bo'lgan⁸⁵.

Karvonsaroylardan tashqari bizgacha yetib kelgan va yaxshi saqlanayotgan to'rt yirik savdo inshooti - Toqi Zargaron, Toqi Telpakfrushon, Toqi Sarrafon va

⁸⁴ Chor bakr tarixiy yodgorligini ta'mirlash. // Buxoro haqiqati. 1999-yil 15-may.

⁸⁵ Salimov S.Tijorat odobi. // Buxoro haqiqati.1991-yil 16-noyabr.

Abdullaxon timlari XVI asrda bunyod etilgan. Toqi Zargaronda 30 dan ortiq zargarlik savdo do'konlari bo'lib, muntazam 8 burchakli ichki xonalar bahaybat gumbazlar bilan yopilgan. Gumbaz ostidagi do'konlarda zeb-ziynat buyumlari va ro'zg'or asboblari yasab sotilgan. Ikkinchi savdo markazi Toqi Telpakfrushon bo'lib, savdo inshooti olti burchak shaklida bo'lgan.

Toqi Telpakfrushon Toqi Kitobfrushon deb ham atalgan. Savdo rastalaridan yana biri gumbazi bir-birini kesib o'tadigan, to'rtta mustahkam peshtoq ustiga qurilgan Toqi Sarrafondir. Peshtoqlar ostidan "Chor zamin" deb atalgan⁸⁶ Buxoro arxitekturasiga xos gumbaz bilan qoplangan yo'l o'tadi. Bu yerda hind sarroflari o'tirib pul maydalashgan, chet el pullarini almashtirishgan. Ushbu tim va toqlar doim chet elliklarning nigohini o'ziga jalb etib kelgan. Buxoro timlariga taqlid etib qurilgan savdo timlari Germanyaning Leypsig shahriga qurilgan.

Ushbu ma'lumotlardan tashqari "Buxoro haqiqati" gazetasida "Obidalar asrlar va nasllar boyligi" rukni ostida statistik ma'lumotlar qayt etib borilgan. Gazetaning 1981-yil aprel sonidagi ma'lumotlarga e'tibor qaratganda quyidagi statistik raqamlar va ma'lumotlar qayt etilgan: viloyatda bu paytda 736 ta qadimiy obida mavjud bo'lib, ulardan 237 tasi memorchilik obidalari, 331 ta arxeologik topilmalar, 168 ta tarix va madaniyat yodgorliklaridir. O'zbekiston tarix va madaniyat yodgorliklari saqlash jamiyatining bu paytda viloyatimizda 430 ming a'zosi jumladan 675 ta jamoatchilik (kollektiv) azosi bo'lgan.

Eng faol jamoat a'zolari, tanlangan 81 ta jamoatchi inspektorlar viloyatdagi 40 ta yodgorlikni qaytadan ta'mirlagan. Mahalliy budjet bo'yicha 1mln 423 ming so'mlik va respublika budjeti bo'yicha 882 ming so'mlik ish bajarilgan. Ta'mirlangan obidalar davlat komissiyasi tomonidan qabul qilinib Mag'oki Attori, Toqi Sarrafon obidalari, Devonbegi masjidi va boshqa obidalarga "a'lo" va "yaxshi" deb baho berilgan⁸⁷.

⁸⁶ Yusupov Yo. Tim va toqlar. // Buxoro haqiqati. 1969-yil 26-aprel.

⁸⁷ Hotamov Z. Umumxalq mulki // Buxoro haqiqati. 1981-yil 9-aprel.

Vohadagi memoriy obidalarining ta'mirlanishida Buxoro maxsus ilmiy restavratsiya ishlab chiqarish ustaxonasi faoliyati asosiy o'rini egallab, ustaxona ustalari boshchiligida faqat viloyat markazida emas, tumanlarda ham madaniy yodgorliklarni ta'mirlash ishlarini amalga oshirib G'ijduvon shahridagi Ulug'bek madrasasi, Vobkent tumanidagi Abdulla Azizxon madrasalarida ta'mirlash ishlari olib borilgan. Karmana shahridagi Shayx Qosim ansambli, Peshko' tumanidagi Xo'ja Peshko' xonaqohi jamoatchilik mablag'lari hisobidan ta'mir etilgan. Buxoro viloyatidagi obidalarni qayta tamirlanishi natijasida keladigan sayohatchilar soni 150 ming kishini tashkil etgan.

Mustaqillik yillarida obidalarimizni ta'mirlanib qayta yosharishida Buxoro ilmiy restavratsiya ishlab chiqarish ustaxonasining yetakchi murabbiyssi Ahmad Boymurodovning hissasi salmoqli bo'lib, u deyarli qirq yildan ziyod umrini memorchilikka bag'ishlaydi. Mirzo Ulug'bek, Abdullaxon, Modarixon, Ark, Bahouddin Naqshband maqbaralari, Navoiydagi Mir Said Bahrom obidasi va Qosim Shayx daxmasi A.Boymurodovning qo'li bilan ta'mirlangan. Ahmad Boymurodov va u kishining o'g'illari Ravshanjon, Rahimjon va Raxmatjon Boymurodovlar, aka-uka Zarif va Sharif Rahimovlar, Qo'shmurod Xolliyev, Raxmatjon Ashurov, Bahodir Hamdamov, Yoqubjon Obidjonov singari ustalar Masjidi Kalonni qayta tiklashda va Miri Arab madrasasi old qismi peshtoqlariga koshinkorlik ishlarini amalga oshirib, Poyi Kalon ansamblini asl holiga keltirishda o'z hissalarini qo'shganlar.

Yuqorida bildirilgan fikrlarga asoslanib "Buxoro haqiqati" hamda "Buxoronoma" gazetalari sahifalarida Buxoro vohasida mavjud tarixiy yodgorliklar va ularning tamirlanish tarixi masalalariga oid maqolalar O'zbekiston tarixining bir qismi hisoblangan Buxoro tarixi masalasini tadqiq etuvchi olim va tadqiqotchilar uchun muhim ma'lumotlar berishi bilan ahamiyatlidir.

I.3. Buxoro davlat universitet tarixi masalalarining gazetalardagi talqini

Prezidentimiz I.A. Karimovning "Dunyo imoratlari ichida eng buyugi maktab bo'lsa, kasblar ichida eng sharaflisi o'qituvchilikdir" degan dono fikrlari mavjud⁸⁸. Shunday ilm maskanlari uchun kuchli pedagog o'qituvchilarni yetishtirgan oliy ta'lim muassasalari ichida Buxoro davlat universiteti o'zining katta shonli tarixiga ega. Buxoro davlat pedagogika institutining barpo etilishida O'zbekiston SSR Xalq Nozirlar kengashining raisi Fayzulla Xo'jayev va Abdurauf Fitrat bevosita faol ishtirok etganlar. 1922-yilda Buxoro xalq jumhuriyatining maorif komissari A.Fitrat Buxoro dorilfunini tashkil etishni kun tartibiga qo'yadi va va shu yili Buxoro xalq maorif instituti tashkil topadi.

1925-yilda O'zbekiston SSR tuzilib, poytaxt Samarqandga ko'chirilishi tufayli Buxoro xalq maorif instituti tugatilib, o'rnida pedagogika bilim yurti tashkil etiladi. 1930-yilda ushbu pedagogika bilim yurti asosida Pedagogika instituti faoliyatni boshladi. Ushbu ilm dargohi ishga tushgach, dastlab F.Xo'jayev nomi bilan atalgan. Ammo keyinchalik qatag'on yillarida F.Xo'jayev "xalq dushmani" deb qoralangach oliy ta'lim dargohining nomi ham o'zgartirildi.

O'zbekiston SSR xududida 1930-yilgacha bir nechta oliy o'quv yurtlari bo'lib ulardan faqat Samarqand pedagogika oliy o'quv yurti o'qituvchi kadrlarni yetishtirib chiqarar edi. Ammo o'sha davrdagi ko'plab maktablar uchun oliy ma'lumotli o'qituvchilarga bo'lgan ehtiyoj oshib bordi. Shu sababli O'zbekiston partiya va hukumatining 1930-yil 14-avgustdagi umumiy majburiy boshlang'ich ta'lim to'g'risidagi qaroriga muvofiq O'zbekistonda Farg'ona va Buxoro davlat pedagogika institutlari ochildi⁸⁹.

Dastavval, institut "Oliy pedagogika instituti" nomi bilan yuritilib o'qish muddati uch yil bo'lgan. 1934-yildan "Davlat pedagogika instituti" nomini olib o'qish muddati to'rt yil bo'lgan. 1938-yil institutga Sergo Orjonikedze nomi berildi. Buxoro davlat pedagogika institutining ochilishida professor Zbitkavskiy

⁸⁸ Ubaydullayev A. Institutimizning tug'ilishi. // Ilg'or fan uchun gazetasi. 1957-yil 5-dekabr.

⁸⁹ Kizbalov Ya. Institutimizning tug'ilishi. // Ilg'or fan uchun gazetasi. 1957-yil 5-noyabr.

va Levitoslar ham katta rol o'ynadilar. Institutga O'z SSR Maorif komissari tomonidan K.Vaxobov direktorlik vazifasiga tayinlandi. Dastlab talabalar yotoqxonasi uchun Ark muzeyining tarix bo'limi joylashgan 4 ta xona, o'qituvchilarining yotoqxonasi uchun esa Devonbegi madrasasidagi xonalar tanlandi.

Darslar birinchi kuni 6 soat bo'lgan: 4 soat ona tili, 2 soat rus tilidan. Ona tilidan birinchi 2 soatda lotin alifbosi va uning ahamiyati to'g'risida ma'ruza o'tilgan. Dastlab o'qituvchilar yetishmasligi sababli faqat til darslari va algebra fanlari o'tilgan. 1930-yilning noyabr oyida Moskvadan professor o'qituvchilar biologiya fanidan Kamenka, antik dunyo tarixi fanidan Kojinlar ta'lim berish uchun tashrif buyurdilar.

1930-yilda institutda 45 nafar talaba tahsil olib, o'quv yilining ikkinchi yarim yilligiga kelganda o'qituvchilar soni 16 taga etdi. Shu vaqtda 3 ta kafedra fizika-matematika, tarix va agropedagogika fakultetlari tashkil etildi. O'qituvchilarning tarkibi 2 ta professor, 5 ta dostent va 9 ta o'qituvchidan iborat bo'lgan. Institut tashkil topganda uning tarkibidagi Tarix bo'limida dastlab 12 nafar talaba o'qir edi. Fakultetni 1957-yilga qadar 2500 dan ortiq talaba bitirib chiqqan. 1957-yilning yanvaridan boshlab tarix va o'zbek adabiyoti bo'limlari birlashtirildi⁹⁰.

1935-yilga kelib institutning tarkibiga geografiya, tibbiyot, o'zbek tili va adabiyoti, rus tili va adabiyoti bo'limlari faoliyat ko'rsatdi. Shu yilning o'zida uning huzurida Xorazm pedagogika instituti filial sifatida tashkil etildi va keyinchalik mustaqil o'quv maskaniga aylantirildi. Chet tillar fakulteti tashkil topgan vaqtda uning tarkibi 7 ta o'qituvchi va 50 ta talabani tashkil etgan. 1970 yilda nemis, fransuz, ingliz tillari kafedراسi tarkibida 50 ta o'qituvchi va 500 dan ziyod talabalar tahsil olgan.

Bilim olgan yoshlar 25 millat farzandlari edi. Fakultetda ilmiy ishlar keng ko'lamda olib borilib Y.M.Gulkorov Moskva pedagogika akademiyasida "5-8

⁹⁰ Obloyev O. Navqiron fakultet. // Buxoro haqiqati gazetasi. 1971-yil 4-yanvar.

sinflarda ingliz tili olmoshlarini o'qitish metodikasi" degan mavzusida nomzodlik dissertastiyasini yoqladi va uning Moskvada 1964 yilda "Ingliz tili olmoshlarini o'qitishga oid mashqlar to'plami" kitobi nashr etildi⁹¹.

Dotsent Sano Saidov Germaniya demokratik respublikasining Aleksandr Gumbot nomli universitetida nemis tilidan dars bergan. Oliy o'quv yurtlarining chet tili fakulteti o'qituvchi va talabalari uchun "Nemis tili grammatikasi" nomli darslik yozdi. Bu kabi ilmiy ishlar institutda ta'lim sifati va chet ellardagi institutlar bilan aloqalarning yaxshi yo'lga qo'yilganligini o'zida ifoda etadi.

1930-yil institutda 16 ta ilmiy xodim ishlagan bo'lsa, 1950-yillarda 84 ta ilmiy xodim ishlagan bo'lib, 1970-yillarga kelib ularning soni 324 kishiga etdi. 1970-yil 3 nafar professor, fan doktorlari, 128 nafar katta o'qituvchilar ishlagan. Buxoro, Xorazm, Qashqadaryo va Surxandaryo viloyatlaridagi o'qituvchilar shu yerda tayyorlanishgan⁹².

Qashqadaryo viloyatidagi o'qituvchilar institutining filiallari ma'lum vaqt davomida ishlab maktablarni o'qituvchi kadrlar bilan ta'minlashni amalga oshirdilar. Institutning Qarshi shahridagi filiali o'qituvchilar institutiga, keyinchalik Pedagogika institutiga aylantirildi. 1935-yilda Buxoro o'qituvchilar instituti tashkil qilinib, 1938-yil bu institut Buxoro davlat pedagogika institutiga birlashtirildi va institut Buxoro davlat pedagogika va o'qituvchilar instituti deb nom oldi. Endi talabalarlar 2 yil o'qituvchilar institutida va 4 yil pedagogika institutida tahsil oladigan bo'ldi⁹³.

Institut o'z faoliyati davomida 1933-yil viloyat maktablariga 35 ta, 1950-yilda 214 ta malakali pedagoglar tayyorlab berdi, 1957-yilda esa 3300 ga yaqin kishi o'qib, shu yilning yoz va kuzida 400 ga yaqin kishi bitirib chiqdi. Shu yilda 138 o'qituvchidan 80 ga yaqini ilmiy ish bilan shug'ullanib ilmiy daraja va unvonga ega bo'lgan o'qituvchilar soni 25 ta bo'lgan. Bular orasida tarix fanlar nomzodi U.X.Kamolov, R.X.Karimovlar va filologiya fanlar nomzodi dostent

⁹¹ Namozov J. Dorilfunun g'unchalari. // Buxoro haqiqati gazetasi. 1970-yil 8-aprel.

⁹² Raxmatov M. Shonli tarix. // Ilg'or fan uchun gazetasi gazetasi. 1957-yil 7-noyabr.

⁹³ Namozov J. Dorilfunun g'unchalari. // Buxoro haqiqati gazetasi. 1970-yil 8-aprel.

M.M. Mirzayevlar bo'lgan. 1970-yilda oliygoxda 7500 ga yaqin talaba tahsil oldi. Mazkur yilga qadar 15 mingdan ortiq turli mutaxassisliklar bo'yicha kadrlar tayyorlanib shundan to'rt minggi xotin-qizlar edi.

Yetishib chiqqan olimlar orasida akademik Ibrohim Mo'minov, fan doktorlari Mustaqim Mirzayev, Madi Abdullayev, Muxammadjon Boltayev kabi olimlar, M. Axadova, S. Aliev, A. Yusupov, X. Guzarov singari 70 dan ziyod dostent va fan nomzodlari shu bilim dargohda kamol topgan. Bu vaqtda oliygohda 7 ta fakultet, 32 ta kafedra faoliyat yuritgan. Talabalarning ijtimoiy faoliyatini yaxshilash maqsadida 1964-yilda 2500 kishiga mo'ljallangan yotoqxona bitkazilib ishga tushirilgan bo'lsa, 1965-yilda esa yana 411 kishilik yotoqxona ishga tushirildi⁹⁴.

Buxoro davlat pedagogika institutining huzurida sirtqi bo'lim ham ochilib 1958-yilga qadar 1220 kishi bitirib chiqdi. Bitiruvchilarning ko'pchiligi maktab o'qituvchilari edi⁹⁵. Institutning sirtqi bo'limlari tomonidan Buxoro, G'ijduvon, Qorako'l, Karmana tumanlarida maslahat manzillari (konsultativ punkt) tashkil qilingan bo'lib, ularda 1200 ga yaqin talaba tahsil olgan. Konsultatstiyalar sirtqi bo'limda ishlab chiqilgan maxsus reja asosida haftaning shanba va yakshanba kunlari o'tkazilgan⁹⁶.

1948-yildan Buxoro pedagogika institutida ilmiy metodik konferensiya ishlay boshladi. Konferenstiyaning vazifasi-institutning urushdan keyingi davrdagi ilmiy metodik ishlarini yakunlash va yuqori ixtisosli o'qituvchi kadrlar tayyorlashdan iborat bo'lgan. Metodik konferensiya 1949-yilning 18-19-mart kunlari "Mahalliy tabiatni o'rganish bo'yicha" va "Pedagogik oliy o'quv yurtlarida o'qitishning pedagogik yo'nalishi to'g'risida"gi ilmiy konferensiyalarni o'tkazdi⁹⁷.

Kuchli salohiyatga ega bo'lgan pedagog kadrlarni tayyorlash institutning asosiy maqsadi hisoblanib, ushbu maqsadni amalga oshirish uchun XX asrning 50-

⁹⁴ Sirtqi o'qitishning yuqori sifati uchun. // Ilg'or fan uchun gazetasi. 1958-yil 3-fevral.

⁹⁵ Karimov X. O'quv konsultativ punktlari xaqida. // Ilg'or fan uchun gazetasi. 1958-yil 3-fevral.

⁹⁶ Valiev X. Ilmiy metodik konferensiya. // Buxoro haqiqati gazetasi. 1948-yil 11-fevral.

⁹⁷ Raxmatov M. Studentlarning pedagogik tayyorgarlik saviyasini oshiraylik. // Ilg'or fan uchun gazetasi. 1957-yil 21-noyabr.

yillarida ham bir qator amaliy konferensiyalar bo'lib o'tgan. Talabalarning pedagogik tayyorgarligini oshirish maqsadida 1957-yilning 11-oktabrida Institut direktori M.N. Raxmatovning institut pedagogika kafedrasida talabalarining pedagogik tayyorgarlik saviyasini oshirish masalasiga bag'ishlangan konferensiyasida dars berishning pedagogik yo'nalishini ta'minlash; talabalarni ilm bilangina emas, balki dars o'tkazishda sinfdan tashqari mashg'ulotlarni o'tkazish; xususiy metodikadan dars berishni yaxshilash; talabalar amaliyotini tashkil etish; bo'lajak o'qituvchi uchun zarur bo'lgan fan pedagogika bilan talabalarni qiziqtirish kabi qator masalalar ko'rilgan⁹⁸.

Institut matbuoti uning haqiqiy oynasi deyilganidek 1957-yil Respublikamizning bir qator oliy o'quv yurtlarida gazetalar tashkil qilindi. Shulardan biri Buxoro davlat pedagogika institutining "Ilg'or fan uchun" gazetasidir. Gazetada talabalar tarbiyasi, professor o'qituvchilarning ilmiy ishlari, darslardagi yutuq va kamchiliklar, talabalarning moddiy ahvoli, ular o'rtasidagi ommaviy-siyosiy ishlarning qo'llanishini keng yoritib borishga doir mavzulardagi maqolalar chop etilgan.

Buxoro davlat pedagogika instituti 1980-yil 50 yillik yubileyini nishonlab, bu yillardagi pedagog kadrlar va professor olimlarni yetishtirishdagi ilmiy faoliyati uchun SSSR Oliy Sovet raisi L.I.Brejnevning 1981-yil 22-maydagi qarori bilan "Hurmat belgisi" ordeni bilan mukofotlandi. 1980-yilda institutda Tabiatshunoslik, Matematika, Fizika, Umumiy texnika, O'zbek tili va xorijiy tillar, Tarix pedagogika, Rus tili, Boshlang'ich talim pedagogika va metodika, Badiiy grafika, Jismoniy tarbiya, Musiqa- pedagogika, Maktab rahbarlarini malakasini oshirish kabi 11 ta fakultet, 45 kafedra faoliyat ko'rsatgan bo'lib bularda 19 ta yo'nalish bo'yicha mutaxassis tayyorlangan⁹⁹.

Institut o'zining 60 yillik yubiley munosabati bilan F. Xo'jayev nomi qayta beriladi va dargohga kiraverish xiyobonida F.Xo'jayevning kichik haykali

⁹⁸ O'qituvchilar gazetasi "Institut gazetasi jangovor va sifatli bo'lsin". // Ilg'or fan uchun gazetasi. 1958-yil 10-aprel.

⁹⁹ Бухарский Государственный Педагогический институт. Справочник. Бухара-1981. Б. 25-33.

o'rnatiladi. Mustaqillik sharofati bilan 1992-yil 28 fevraldagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A.Karimovning "Respublikaning yangi oliy o'quv yurtlarini tashkil etish to'g'risidagi" farmonida oliy ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, yuqori malakali mutaxassislar va ilmiy kadrlarni tayyorlash maqsadida O'zbekistonning Andijon, Xorazm, Qashqadaryo, Surxondaryo, Sirdaryo, Namangan, Navoiy, Buxoro viloyatlaridagi pedagogika institutlari negizida davlat universitetlari tashkil etildi.

Jumladan, Buxoro davlat universiteti mazkur maqomda 1992-yil 15-martdan o'z faoliyatini boshladi¹⁰⁰. Buxoro davlat universitetida mustaqillik yillarida 9 ta fakultet bo'lib ularda 4 mingga yaqin talabalar tahsil olgan. Universitetda 1989-yildan boshlab aspirantura yo'nalishlari tashkil qilinib undagi yo'nalishlar soni 22 ta bo'lgan. 1998-yildan doktorantura yo'nalishi tashkil etilgan. 2001-yildan esa dastlabki magistratura yo'nalishi o'z faoliyatini boshladi.

Buxoro davlat universiteti tashkil topgach dunyo mamlakatlari bilan fan-ta'lim va madaniy-ma'rifiy sohalarni yo'lga qo'yish maqsadida AQSh, Germaniya, Angliya bilan ilmiy-pedagogik aloqalarni yo'lga qo'ydi. Dastlab ushbu mamlakatlardan 10 nafar mutaxassis Buxoro davlat universitetiga yuborilib nemis va ingliz tillaridan talabalarga saboq berildi. Shu tariqa universitetda tashqi aloqalar bo'limi tashkil topdi¹⁰¹.

Buxoro davlat universiteti keyinchalik hamkorlik doirasini kengaytirib, Rossiyaning Moskva davlat universiteti, Ukrainaning Kiyev, Fransiyaning Grenobl, Sent-Emen, Sarbonna, Parij Syud-11, Koreyaning Kan-Kuk universiteti, Misrning Ayn-Shams universitetlari bilan ilmiy xamkorlik to'g'risida shartnomalar imzoladi. Bunga muvofiq oliygohlar o'rtasida tadqiqotchi, professor o'qituvchilar va talabalar almashinuvi amalga oshirilib birgalikda ilmiy ishlar himoya qilinadigan bo'ldi¹⁰².

¹⁰⁰ Qorayev T. Buxoro davlat dorulmuallimini Buxoro davlat dorilfuniniga aylantirish to'g'risida. // Buxoro haqiqati. 1992-yil 15-mart.

¹⁰¹ I smoilov J. Qatrada quyosh aksi. // Buxoro haqiqati. 1997-yil 5-noyabr.

¹⁰² Bobokalonov S. Buxoro yoshlari gazetasi. // Buxoronoma. 2003-yil 23-aprel.

Shu asnoda Yevropa ittifoqining Tempus dasturi asosida hamdo'stlik grantlari ajratildi. Shunga asosan Fransiya, Italiya, Irlandiya universitetlari Yevropa Ittifoqi tomonidan, universitetimiz O'zbekiston tomonidan xamkorlikda Buxoro davlat universiteti bazasida 1997-yildan "O'zbekiston-Yevropa qo'shma iqtisodiy" fakulteti tashkil etildi va dastur grantlarini amalga oshrish uchun 50 ming dollar mablag' ajratildi¹⁰³.

Buxoro davlat universitetida Koreyaning koreys tili markazi, 2000-yildan esa Misrning arab tilini o'rganish markazi ochildi. Xorijdagi oliy o'quv yurtlari bilan xamkorlik qilish borasidagi katta muvaffaqiyatlar va universitetdagi sifatli ta'lim jarayonlari kabi ijobiy ishlarni hisobga olib Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan Fransiya milliy sanoat assostatsiyasining Oltin medali bilan 2000 yilda taqdirlandi¹⁰⁴.

Buxoro davlat universitetida Vazirlar Mahkamasining "2001-2005 yillarda kompyuter va axborot texnologiyalarini rivojlantirish chora tadbirlari" to'g'risidagi qarori asosida 2001-yil 26- maydan Test markazi ochildi. Hozirgi kunda universitet O'zbekistonning yuqori malakali kadrlar o'chog'i bo'lib unda 8 fakultet, 28 ta kafedra, Malaka oshirish va qayta tayyorlash markazi faoliyat ko'rsatmoqda.

Universitetda 34 ta ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavriat, 32 ta mutaxassislik bo'yicha magistratura mavjud. Universitetda jami 6000 ga yaqin talaba tahsil oladi. Universitet huzurida 4 ta akademik listey, axborot texnologiyasi va masofadan o'qitish markazi, axborot markazi, 100 o'ringa mo'ljallangan kompyuter markazi xamda 6 ta chet tillarni o'rganish markazi tashkil etilgan.

Mamlakatimizda faoliyat olib borayotgan oliy ta'lim muassasalarining o'qitish uslubi, bugungi kundagi ilm-fan ravnaqiga qo'shgan hissasi bilan baholanadi albatta. Bu yo'nalishda Buxoro davlat universitetidagi o'quv va ilmiy

¹⁰³ Ismoilov J. Qatrada quyosh aksi. // Buxoro haqiqati. 1997-yil 5-noyabr.

¹⁰⁴ Xalilov A. Buxoro universitetiga oltin medal. // Buxoronoma gazetasi. 2000-yil 27-may.

ishlar zamonaviy ta'lim tizimiga qo'yiladigan talablarga to'la javob berib kelmoqda. Bu ilm dargohi tarixi O'zbekistonning ta'lim tizimi tarixida tayanch va shu bilan birga, yetakchi o'rinni egallaydi.

Xulosa

Davriy matbuot tarixiy manbaning turlaridan biri bo'lib, muhim tarixiy voqea va hodisalar to'g'risida undan boy ma'lumotlar olish mumkin. Davriy

matbuot sahifalaridagi tarixiy maqolalarda tegishli ma'lumotlar jamlangan bo'lib, unda rasmiy buyruq va farmoyishlar, statistik, etnologik ma'lumotlar to'plangan. XIX asr oxiri - XX asr boshlarida gazeta xalqqa axborotni tez va samarali yetkazuvchi asosiy vosita ekanligini jahon tajribasidan sinovdan o'tgandi.

Chunki tadqiqotchilar matbuotda o'sha davr zamondoshlari va voqea guvohlilarining xilma-xil qarashlari, hamda fikrlari bilan bevosita tanisha oladilar. Ma'lum bir ijtimoiy-siyosiy guruhlar gazetadan xalqqa o'z fikr mulohazalarini yetkazish va shu orqali tarafdorlarini ko'paytirish maqsadida foydalanganlar. Natijada XIX asr oxiri XX asr boshlarida chop etilgan gazetalarning son jihatdan geografik doirasi kengayib borgan.

Ushbu davrda Turkistonda milliy matbuotning paydo bo'lishi katta ahamiyatga ega bo'lib, mahalliy aholining siyosiy-ijtimoiy va madaniy tafakkurini shakllantirishda muhim rol o'ynagan. XX asrning dastlabki o'n yilligida Buxoroda siyosiy va ijtimoiy jarayonlarning keskinlashuvi hamda jadidchilik harakatining kuchayishi natijasida xalq ongida ma'rifatparvarlik g'oyalarini targ'ib qilishning yangi bosqichi sifatida matbuotchilik yuzaga keldi.

Buxoroda dastlabki matbuot organlari sifatida "Buxoroi Sharif" va "Turon" gazetalari chop etildi. Ushbu gazetalar mahalliy matbuotchilikning keyingi taraqqiyotida muhim rol o'ynaganligi e'tiborga loyiqdir. Biroq bu gazetalar qisqa muddatda chop etilib, BXSR hukumati o'rnatilgandan so'nggina matbuotchilik ishi uzliksiz davom ettirildi.

O'zbek tilida muntazam chop etilgan matbuot nashrlaridan hisoblangan "Buxoro axbori" va "Ozod Buxoro" gazetalari ushbu davrdagi siyosiy iqtisodiy hayot bilan bog'liq ma'lumotlarga ega tarixiy manba bo'lib, ularda BXSRning dastlabki kunlardanoq kechkan barcha jarayonlar imkon qadar yoritilgan. Mazkur matbuot organlarida hukumatning qaror va buyruqlari, hukumat tarkibi, davlat tomonidan amalga oshirilayotgan chora tadbirlar e'lon qilib borilganligi 1920-1924-yillar tarixini xronologik jihatdan o'rganishga yordam beradi. Ushbu gazetalarga Said Ahroriy, Abdulhamid Cho'lpon, Qori Yo'ldosh Po'latov

muharrirlik qilgan davrda ayniqsa ta'sirchan kuchi kuchaygan va ommaviy matbuot nashrlariga aylangan. Yuqoridagi ism-shariflari keltirilgan tarixiy shaxslarning matbuotchilik sohasidagi faoliyati ibratlidir.

“Buxoro axbori” va “Ozod Buxoro” gazetalarining davomchisi sifatida Buxoro vohasi va uning tumanlarida ham gazetalar tashkil qilina boshlangan. Bu kabi gazetalarni tashkil qilishdan ko'zlangan asosiy maqsad SSSR davlatining kommunistik mafkurasini xalq ommasi ongiga singdirish va insonlarni ushbu g'oya asosida tarbiyalash ko'zlangan edi.

Buning yorqin namumasini ushbu gazetalarining nomlanishida ham ko'rishimiz mumkin. Jumladan, “Болшевистик сур'ат”, “Октябр байроғи”, “Меҳнат байроғи”, “Коммунизм тонги”, “Коммунистик мўлкўлчилик”, “Колхоз зарбдори” kabi gazetalarining nomlanishi fikrimizning dalilidir.

Milliy istiqlol sharofati bilan ushbu gazetalarining nafaqat nomi balki ularning bir tomonlama qaralgan mafkuraviy g'oyasi ham o'zgarib, mustaqillik, milliy istiqlol g'oyalar asnosida turli xildagi tazyiq va taqiblardan xoli bo'lgan erkin matbuotiga aylandi. Jumladan, “Jondor ovozi”, “Shofirkon ovozi”, “Yangi hayot”, “Qorako'l sadosi” kabi gazetalar fikrimizning tasdig'idir.

Buxoro vohasining tumanlari bilan bir qatorda viloyatning asosiy matbuot organi hisoblangan “Buxoro haqiqati”, “Buxoronoma” gazetolari butun vohaning tarixini o'rganishda o'z davrining asosiy manbasi sifatida xizmat qiladi. “Buxoro haqiqat” gazetasi 1938-yildan 1999-yil 1-dekabrgacha bo'lgan davr mobaynida aholining siyosiy, ijtimoiy va madaniy tafakkurini shakllantirishdan muhim rol o'ynadi.

Gazetaning sahifalarida mustaqillikgacha bo'lgan davr mobaynida kommunizm g'oyasi asosida yaratilgan buyruq va farmonlar, qaror va e'lonlar chop etilishi bilan bir qatorda, aholining ma'naviy ongini yuksaltirishga yo'naltirilgan maqolalar ham nashr etilgan. Jumladan, gazetaning oxirgi sahifalaridagi ruknlarda buxorodagi ilmiy dorilfununlar, institutlar, ularning

faoliyati va yoshlarni ushbu dorilfununlarga o'qishga jalb etish yo'lidagi say'harakatlar yoritib berilgan.

Ushbu bitiruv malakaviy ishida gazeta sahifalarida chop etilgan tarixiy maqolalarni o'rganish davomida ularni guruhlarga bo'lgan holda tahlil qilindi. Gazeta sahifalarida turli yillarda chop etilgan maqolalar uch guruhga bo'linib o'rganildi:

Birinchi guruhga numizmatik, toponimik, manbashunoslik kabi sohalarga tegishli bo'lgan va vohaning qadimgi, ilk va o'rta asrlar tarixi, Buxoro amirligi va amirlik ag'darilgandan so'ng vujudga kelgan BXSR tarixiga doir maqolalarga ajratildi. Chop etilgan ushbu maqolalarni o'rganish davomida gazetadagi tarixiy ma'lumotlar gazetaxonlarning tarixiy bilimlarga bo'lgan ehtiyojini qondirish manbasi sifatida muhim ahamiyat kasb etib, vohaning tarixi haqida keng va atroflicha ma'lumotlarga ega ekanligi aniqlandi. Gazeta nafaqat vohaning tarixi haqida ma'lumot berish bilan bir qatorda, tarixiy maqolalarni chop etishda davrning asosiy matbuot organi bo'lganligi bilan ham xarakterlidir.

Ikkinchi guruhga chop etilgan gazeta nashrlaridagi maqolalarni vohaning butun shon-shuhratini dunyoga tanitgan me'moriy obidalar, ularning tarixi va ta'mirlanishiga oid maqolalarga ajratishimiz mumkin. Maqolalarda buxorodagi muqaddas qadamjolar, me'moriy inshootlar, ularning tarixi va ta'mirlanishi yoritilgan bo'lsa, statistik ma'lumotlarda esa me'moriy inshootlarning SSSR yillaridagi qayt etilgan soni, o'tgan asrning 70-80-yillarida ta'mirlangan obidalar va ularni ta'mirlashga jalb etilgan korxona, tashkilotlarning statistik soni qayt etilgan. Ushbu ma'lumotlar vohadagi me'moriy obidalarining tarixi va ularning SSSR yillaridagi ahvoli haqida ma'lumot beradi. Mustaqillikdan keyingi yillarda "Buxoro haqiqati", "Buxoronoma" nashrlarida mustaqillik sharofati bilan me'moriy obidalarining asl holiga keltirib ta'mirlanishi to'g'risida atroflicha kengroq va batafsilroq ma'lumotlar berilganki, ushbu ma'lumotlar obidalarining mustaqillikdan keyingi tarixini o'rganishda ahamiyatlidir.

Uchinchi guruhga 85 yillik to'yini nishonlagan respublikaning to'ng'ich oliy o'quv yurtlaridan biri Buxoro davlat universiteti va uning tarixi haqida ma'lumot beruvchi maqolalar tadqiq etildi. Gazetalarda universitetda turli yillarda tahsil olgan ziyolilarining esdalik xotiralari, rektorlarning institut faoliyati haqidagi chiqishlari va talabalarning institutda o'qish davomidagi faoliyati, professor-o'qituvchilarning maqolalari va kichik tezislari bugungi Buxoro davlat universiteti tarixini o'rganishda muhim manbaviy ahamiyat kasb etadi.

Xullas malakaviy bitiruv ishida matbuot ma'lumotlari asosida Buxoro vohasining davriy matbuot organlari, ularning tarixi va gazetalarning voqea tarixini yoritishdagi o'rni haqida fikr mulohazalar berildi. Istiqbolda malakaviy ishni davomi sifatida Buxoro viloyatida XX asrning 30-90-yillardagi ijtimoy-iqtisodiy ahvol, jumladan, qishloq xo'jaligi, sanoat va savdo munosabatlari, maishiy turmush va tibbiy yordam masalalarining gazetalardagi talqinini, tanqidiy, qiyosiy-tipologik tahlil asosida o'rganish katta ilmiy natijalar berishiga aminman.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

I. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov asarlari

- I.1.** Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka taxdid, barkarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. -T.: O'zbekiston, 1997. -324 b.
- I.2.** Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. -Toshkent.: O'zbekiston, 1998. -32 b.
- I.3.** Karimov I.A. Yuksak ma'navyat- yengilmas kuch.-Toshkent.: Ma'naviyat, 2008. –108 b.
- I.4.** Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. –Toshkent.: O'zbekiston, 2011. -344 b.
- I.5.** Karimov I.A. Ona yurtimiz baxr-u iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish- eng oliy saodatdir. –Toshkent.: O'zbekiston, 2015. -281 b.

II. Asosiy adabiyotlar.

- II.1.** Abdulazizova N. O'zbek jurnalistikasi tarixi. –T.: Akademya, 2002, -192 b.
- II.2.** Do'stqorayev B. O'zbekiston jurnalistikasi tarixi (1870-1917-yil noyabr). Darslik.-T.:G'afur G'ulom. 2009. 378 b.
- II.3.** Do'stqorayev B. Ismoil Gasprinskiy va Turkiston.-T.: Sharq, 2005. -288 b.
- II.4.** Naimov N. Buxoro matbuotining tug'ulishi. / Tarixga muhrlangan 90-yil."Buxoronoma" gazetasining 90 yilligiga bag'ishlanadi. Buxoro, 2010. -B.19-20.
- II.5.** Naimov N. Buxoroi Sharif. –Buxoro, 2005. 55 b.
- II.6.** Ochilov N. Davriy matbuot // O'zbekiston milliy ensklopediyasi. J. 2. - T.: O'zME nashriyoti. 2006. -B . 227.
- II.7.** Shodmonova S. Turkiston tarixi- matbuot ko'zgusida.-T.: Yangi nashr, 2011.-293 b.
- II.8.** Raxmonov K. Buxoro axbori" va "Ozod Buxoro" gazetalari – Buxoro Xalq Sovet Respublikasi tarixini o'rganish manbasi": tarix fanlari ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – Toshkent, 2009. –B.32;
- II.9.** Raxmonov K. Buxoro Xalq Sovet Respublikasi tarixi matbuot saxifalarida (1920-1924 yillar)- T.:“Abu Matbuot-Konsalt” 2012. -142 b;

- II.10.** Raxmonov K. Buxoroda mahalliy matbuotning vujudga kelishi tarixidan (XX asrning birinchi choragi) // Buxoro davlat universiteti ilmiy axboroti. –Buxoro, 2008. -№3. -B. 24-28.
- II.11.** Raxmonov K. Matbuotda dunyo mamlakatlaridagi ijtimoiy-siyosiy muammolar talqini // Buxoro davlat universiteti ilmiy axboroti. –Buxoro, 2011. - №1. -B. 4-8.
- II.12.** Raxmonov K. “Buxoro axbori” gazetasi- Buxoro Respublikasi matbuot organi // Jamiyat va boshqaruv. - Toshkent, - № 2. 2004. -B. 44-46.
- II.13.** Raxmonov K. Turkistonda matbuot tarixining dolzarb muammolari. (1870-1924yy). –Buxoro, 2015. -116 b.
- II.14.** Rashidov U. Rashidova L. / Бухоро амирлигида жадидчилик ҳаракати ва унинг шаклланиш омиллари / Из истории культурного наследия Бухары. (10 выпуск).-Бухара, 2006. — С. 81-85.
- II.15.** Rajabov Q. “Tarbiyayi atfol” // O‘zbekiston milliy ensklopedyasi. J. 8. - T.: O‘zME nashriyoti, 2004. - B. 271.
- II.16.** Rajabov Q. XX asr boshlarida Turkiston yoshlari. Ularning siyosiy faoliyati va Sharq mamlakatlaridagi yoshlar bilan uzviy aloqalari. // Huquq va burch.- Toshkent. -№1 2000.-B. 39-43.
- II.17.** Rajabov Q. Buxoroga qizil armiya bosqini va unga qarshi kurash: tarix haqiqati (1920-1924-yillar). T.: Ma’naviyat, 2002. -146 b
- II.18.** Ibrohimov I. Ma’rifat ziyosi // 20.000-uchrashuv “Buxoronoma” gazetasi 20.000-soni chiqqaniga bag’ishlangan publitsistik risola. Buxoro, 2007. - B. 21.
- II.19.** Hayitov Sh. Tatar ziyolilari Buxoroda // Buxoro mavjlari. Buxoro, №2 2007.-B . 41-43.
- II.20.** Rasulov M. Mustaqillik yillarida “O‘zbekistonda tarixiy va ma’daniy yodgorliklarning muhofaza qilinishi va tiklanishi. / O‘zbekiston tarixining dolzarb masalalari: asosiy yo’nalishlari va yondashuvlar” Respublika yosh olimlarining birinchi ilmiy konferensiya materiallar to’plami. T.: Sharq, 2009. -304 b.

III. Davriy matbuot.

- III.1.** Aliyev S. Cho'lpon nazdida Buxoro // Buxoro haqiqati. 1997 yil 20 dekabr.
- III.2.** Axmedov A. Buxoroning oxirgi amirlari // Buxoronoma. 2000-yil 17-iyun.
- III.3.** Baqoyev M. Mulla Abduqahhor kim edi // Buxoronoma. 2001-yil 4-avgust.
- III.4.** Do'stqorayev B. Buxoroda milliy matbuotning yuzaga kelishi // Ma'rifat. 2008-yil 21, 25, 28 iyun.
- III.5.** Do'stqoriyev B. Cho'lpon: gazeta-yettinchi davlat // O'zbekiston adabiyoti va san'ati. 2004 yil 22 oktabr.
- III.6.** Halimov T. Abdixo'ja Jo'yboriy // Buxoronoma. 1999-yil 22-dekabr.
- III.7.** Hasanov A. Odamdan so'z qolur // Buxoro haqiqati. 1992-yil 26-sentabr.
- III.8.** Hayitov Sh. Saidqul kim edi (Buxorolik savdogar Saiqul haqida) // Buxoro haqiqati. 1996-yil 20-aprel.
- III.9** Hayitov Sh. Amir Olimxon va afg'on amirlari // Buxoronoma. 2002-yil 26-yanvar.
- III.10.** Hayitov Sh. Raxmonov K. BXSReda soliq siyosati // Buxoronoma. 2003-yil 19-iyul.
- III.11.** Hayitov Sh. Birinchi muharrir // Buxoronoma. 2003-yil 10-sentabr.
- III.12.** Ibrohimov I. Zariruddan suv ichgan zamin // Buxoro haqiqati. 1996-yil 16-oktabr.
- III.13.** Jumayev G. Xayroboddagi Chashmai Ayub maqbarasi // Buxoronoma. 2004-yil 13-mart.
- III.14.** Murodov U. Chuqur o'rganilmagan mavzu (Mang'itlar davlat boshqaruvi). // Buxoronoma. 2001-yil 13-iyun.
- III.15.** Muhammadjonov A. Qadimgi Buxoro (Buxoroning paydo bo'lishi) // Buxoro haqiqati. 1991-yil 18-dekabr.
- III.16.** Naimov N. Amirning zurriyoti (Said Mansur Olimiy) // Buxoro haqiqati. 1997-yil 5-noyabr.
- III.17.** Naimov N. Aldanganlar qismati (Germaniyada taxsil ko'rgan buxoroliklarning achchiq qismati) // Buxoro haqiqati. 1998-yil 10-yanvar.

- III.18.** Naimov N. Xorijda qolib ketgan hujjatlar // Buxoro haqiqati. 1997-yil 10-dekabr.
- III.19.** Nazarov O. Buxoroning so'nggi amiri: yoki Said Olimxon farzandlarining taqdiri hamda uning xalq nomiga qoldirgan maktubi // Buxoro haqiqati. 1993-yil 19-oktabr.
- III.20.** Qozoqov B. Buxoroning qadimiy kitoblari // Buxoro haqiqati. 1997-yil 12-noyabr.
- III.21.** Qosimov F. Temuriylar davrida Buxoro // Buxoro haqiqati. 1996-yil 6-yanvar.
- III.22.** Rashidov U. Buxoro inqilobi u qanday bo'lgan // Buxoro haqiqati. 1995-yil 23-avgust.
- III.23.** Rajabov Q. Buxoro qushbegilari // Buxoronoma. 2005-yil 15-oktabr.
- III.24.** Sodiqov X. Buxoro elchilarining peterburg safari // Buxoro haqiqati. 1989-yil 14-oktabr.
- III.25.** To'rayev H. Toponimik obyektlar tarix guvohi // Buxoronoma. 2005-yil 17-sentabr.
- III.26.** To'rayev H. Amir Abdulahadxon qo'lyozmasi // Buxoro haqiqati. 1990-yil 9-iyul.
- III.27.** To'rayev H. Amirning buzulgan maktubi // Buxoro haqiqati. 1990-yil. 18-avgust.
- III.28.** To'rayev A. Amir Muzaffarning Rum sultonligiga maktubi (Amir Muzaffar haqida) // Buxoro haqiqati. 1995-yil 16-dekabr.
- III.29.** Yo'ldoshev N. Nemis tilidagi Buxoro tarixi // Buxoro haqiqati. 1989-yil 7-oktabr.
- III.30.** Shukrullayev Y. Buxoro amirligida harbiy ish // Buxoronoma. 2001-yil 13-yanvar.

IV.Internet ma'lumotlar:

IV.1. www.twirpx.com;

IV.2. www.wikipedia.ru;

IV.3. www.ziyonet.uz;

IV.4. www.centrasia.ru;

ILOVA